

*Islom KARIMOV*

---


**O'ZBEKISTON  
DEMOKRATIK  
TARAQQIYOTNING  
YANGI BOSQICHIDA**

*Demokratik jamiyatning shakllanishi bir lahzada ro'y beradigan jarayon bo'lmasdan, avvalambor odamlar ongi va tafakkurida yangilanish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan bog'liq uzoq va davomli jarayondir.*

*Hayot yurishi va taraqqiyoti bilan demokratik o'zgarishlar, jamiyat demokratik qadriyatlarining tobora yuksalishi davom etaveradi.*

***Islom KARIMOV***

VO 31367  
297



**PARLAMENT – JAMIYAT  
HAYOTINING KO'ZGUSI**

— \* —

**BIZNING BOSH MAQSADIMIZ –  
JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH  
VA YANGILASH, MAMLAKATNI  
MODERNIZATSİYA VA  
ISLOH ETİSHDIR**

— \* —

**YANGI HAYOTNI  
ESKICHA QARASH VA YONDASHUVLAR BILAN  
QURIB BO'L MAYDI**

— \* —

**DEMOKRATIK JAMIYAT  
SARI YANGI QADAM**



## **PARLAMENT — JAMIYAT HAYOTINING KO'ZGUSI**

Assalomu alaykum, hurmatli xalq noiblari!

Avvalo, barchangizni el-yurt ishonchini qozonib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati degan yuksak nomga sazovor bo'lganingiz bilan samimiy tabriklayman. Mamlakatimizda o'tgan parlament saylovlariga tayyorgarlik paytida va bevosita saylov jarayonida xalqimiz o'zining faolligi, siyosiy ongi va saviyasini yorqin namoyon etdi. Shu bois bu saylovlar xalqaro hamjamiyat, xorijiy kuzatuvchilar tomonidan yuqori baholandi va buning uchun hammamiz xalqimizga, saylovchilarimizga ta'zim qilsak arziydi.

Barchangizga ma'lumki, ushbu saylovlar oshkorlik, ochiqlik va qizg'in kurashlar bilan o'tdi. Ularni nafaqat yurtimizga kelgan xalqaro ekspert va kuzatuvchilar, balki bizga xayrixoh bo'lgan, bizni uzoqdan biladigan dunyo jamoatchiligi ham ommaviy axborot vositalari orqali kuzatib bordi.

Shu ma'noda, bu saylovlar biz uchun yana bir sinov bo'ldi. Yaratganga shukrlar bo'lsinki, saylovchilarimiz, butun xalqimiz bu sinovdan yorug' yuz bilan o'tdi. Bu sinov bizning hech kimdan kam emasligimizni, yurtimizda demokratik dav-

lat barpo etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish yo'lida salmoqli qadamlar qo'yayotganimizni yana bir bor ko'rsatdi. Shuning uchun ham bu saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohi-da sahifa bo'lib qoladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu saylovlarning oldingi saylovlardan farqi har jihatdan katta bo'ldi. Bu haqiqatni biz bilan birga xalqaro jamoatchilik ham e'tirof etmoqda. Juhon matbuotida taniqli siyosatchi va sharhlovchilarning bu haqdagi xulosalari hamon chop etilayotgani ham shundan dalolat beradi.

Men Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan siz, muhtaram deputatlarga o'zimning samimiylurmatimni bildirib, sharafla va mas'uliyatli faoliyattingizda muvaffaqiyatlar tilayman. Garchi hammangizni yaqindan bilmasam ham, sirdan yaxshi taniyman. Saylov jarayonida televdeniya va matbuot orqali chiqishlaringiz, bildirgan fikr-mulohazalaringiz, dasturlaringiz bilan tanishib, chehrangizni ko'rib, xuddiki, sizlar bilan yaqindan tanishgandek bo'lganimni aytmoqchiman.

Fursatdan foydalanib, Qonunchilik palatasi rahbarligiga saylangan deputatlarni ham chin qalbimdan tabriklayman. Bugungi majlis kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha sizlarning faollik ko'rsatayotganingiz, ularning mohiyatini to'g'ri tushunib, o'z fikringizni erkin bayon etayotganingiz — ochiq aytishim kerak — meni quvontirmoqda.

Shu bilan birga, ko'nglimdagi bir xavotirni ham ochiq bildirmoqchiman. Bu muhtasham zalga kirganda, odamni beixtiyor uning salobati bosadi, albatta. Sizlarning orangizda bu zalga birinchi marta qadam qo'ygan deputatlar ham bor Odam bunday salobatli, betakror binoga kirganda o'zining qaysi davlatda, qanday jamiyatda yashayotganini, kimga, qanday ulug' maqsadlarga xizmat qilayotganini o'zida aniq tasavvur qilgandek bo'ladi.

Umuman, bu yerga ilk bor kelgan odam ham, ilgari bo'lgan kishi ham o'zini ozgina vazmin, bosiq tutishga urinadi. Buni men yaxshi tushunaman. Lekin doimo bosiq bo'lib jim o'tirish de-putatlik faoliyatiga to'g'ri kelmaydi. Chunki shu zalga kirib, mamlakatimiz hayotiga daxldor dolzarb masalalarni ko'rib chiqayotganda, oldimizda turgan vazifalar haqida gap ketganda, deputatlik maqomiga erishgan har bir odam "Mana, endi men deputat bo'ldim, meni saylagan saylovchilar oldida, el-yurtimiz oldida o'z burchimni bajarishga, menga bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qilishim kerak", deb o'zining bu boradagi pozitsiyasini yana bir bor qat'iy belgilab olishi lozim.

Shu ma'noda, har qaysi deputat o'z vakolati va mas'uliyatini teran his qilishi, muhokamalar paytida qaddi-qomatini ko'tarib, o'z fikrini dadil bildirishi zarur. Bu zalda vazirlar ham, ulardan yuqori lavozimdagisi odamlar ham o'tiradi. Lekin deputatlik vazifasi ular orasida alohida yuksak vazifadir.

Deputat — bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo'lmashin, avvalo xalq oldida javob beradi. Shuning uchun ana shu xalq manfaatlari yo'lida parlamentdagi g'oyalar, yondashuv va qarashlar xilma-xil bo'lgani yaxshi. Men bir fikrni qayta-qayta takrorlamoqchiman: siz, aziz deputatlar qonun iciyihalarini muhokama qilish jarayonida erkin bo'lib, o'z fikringizni tortinmay, bemalol bildirsangiz, ayni muddao bo'lur edi. Muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha qizg'in tortishuvlar, hatto ba'zilar o'z fikrini joyidan turib bildirsa ham ma'qul, nega deganda, bu jonli fikr almashuv belgisidir.

Shu bilan birga, men o'zaro munosabatda, mana shu zalda bo'ladigan muhokama va munozaralar vaqtida uchta narsani esdan chiqarmasligimizni istardim.

**Birinchidan**, har qaysi deputat o'zining qadr-qimmatini bilishi lozim. Shundagina u boshqalarni ham hurmat qiladi.

**Ikkinchidan**, mehr-oqibatlilik bizning xalqimizga yarashadigan, bizning xalqimizga xos bo'lgan fazilat ekanini hech qachon yoddan chiqarmaslik darkor.

Sizlarga ruh va madad beradigan **uchinchi fikr** shuki, biz kimmiz, Amir Temur bobomiz aytganidek, qanday xalqning farzandimiz, degan savoni doimo o'zimizga berishimiz kerak. Shu bilan birga, kecha kim edig-u, bugun kim bo'ldik, degan savolni ham hech qachon unutmasligimiz lozim. O'ylab ko'ring, biz 90-yillarda qanday ahvolda edik? O'sha

davr bilan solishtirganda bugun biz qanday ulkan yutuqlarga erishganimizni jahon ahli ko'rib turibdi va e'tirof etmoqda.

Bugun Oliy Majlisimizning quyi palatasi bo'lmish Qonunchilik palatasi rahbarlarini yangicha tartibda sayladik. Xo'sh, bu nimaning natijasi? Bu haqda ham o'ylab ko'rishimiz lozim. Nima uchun bugun biz aynan mana shunday yangi qadamlarni qo'ymoqdamiz? Bu yangiliklar bizning umumiy ishimizga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Avvalambor, biz demokratik davlat barpo etayotganimiz, fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirayotganimizni ta'kidlamoqchiman. Yuqorida aytilgan biz kim edig-u, kim bo'ldik, degan savolga mana shunday o'zgarish va yangilanishlar misolida javob topish mumkin. Va o'ylaymanki, bunday haqiqatni nafaqat siz, muhtaram deputatlar, balki yurtimizda yashayotgan oddiy odamlar ham bugun chuqur his etmoqda. Ya'ni, biz demokratik qadriyatlarni o'z hayotimizga joriy etishda salmoqli natijalarga erishyapniiz.

Shu o'rinda har qanday demokratik parlamentning asosiy sharti bo'lgan ko'ppartiyaviylik masalasiga to'xtalib o'tmoqchiman. Modomiki, biz demokratik jamiyat qurmoqchi ekanmiz, jamiyatimizda albatta ko'ppartiyaviylik tizimi bo'lishi kerak.

Bu tizim nima uchun zarur, degan savolga men shunday javob bergan bo'lardim. Ko'ppartiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlariiga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlama va guruhning

maqsad va intilishlarini to‘liq aks ettirish uchun kerak. Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o‘zining manfaatlarini qandaydir yo‘llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo‘lsa, qonuniy yo‘llar bilan o‘z maqsadlariga erishishga intiladi.

Shu ma’noda, har bir partiya o‘ziga bo‘lgan ishonchni, kuch-quvvatni xalq ichidan oladi. Shuning uchun ham har qaysi partiya — xalqning ma’lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Olloh odamzotni shunday yaratganki, har bir inson o‘ziga xos bir olam. Shu bois ikki nafar inson hech qachon bir-biriga yuz foiz o‘xshamaydi. Binobarin, ikkita xalq, ikkita davlat ham bir-biridan qandaydir xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xuddi shuningdek, siyosiy partiyalar ham o‘z g‘oyasi, maqsad va vazifalari bilan bir-biridan farq qilishi zarur. Shundagina ular jamiyatdagi xilmoxil qarash va manfaatlarni to‘laqonli aks ettingan bo‘ladi.

Shu bilan birga, siyosiy partiyalar xalqni, millatni qadim-qadimdan birlashtirib kelayotgan mushtarak g‘oyalar ham borligini doimo esda tutishi zarur. Shu bois ular o‘z manfaatlarini himoya qilishda bir-biriga raqib yoki muxolifat bo‘lishi mumkin, lekin yagona Vatan, yagona xalq manfaatlari haqida gap ketganda hammasi bir musht bo‘lib birlashishi

darkor. Bugungi kunda bizning yurtimizda milliy istiqlol g'oyasi ana shunday birlashtiruvchi kuch bo'lib hisoblanadi.

Albatta, har bir inson o'z fikri va irodasini erkin ifoda etishga haqli. U shuning uchun dunyoga kelgan. Shunday ekan, har bir saylovchi o'ziga ma'qul bo'lgan partiyani o'zi tanlashi kerak. Boshqacha aytganda, har qaysi partiyaning o'z elektorati — uni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy qatlama bo'lishi lozim. Agar shunday bo'lmasa, bu partiya haqiqiy siyosiy kuch bo'la olmaydi.

Yurtimizda bo'lib o'tgan parlament saylovlari shuni ko'rsatdiki, hozir bizda ana shunday qatlama shakllanmoqda. Ya'ni, saylovchilar endilikda duch kelgan odamga emas, balki o'zi dastur va g'oyalalarini yoqtirgan, kelajagi bor deb hisoblaydigan partiyaga ovoz bermoqda.

Mana, bir misol. Saylov jarayonida Andijonda saylovchilar ba'zi bir deputatlikka nomzodlarga, ey og'ayni, siz ikki martalab deputat bo'lib, nima karomat ko'rsatdingiz, deb ochiq aytdi. Bizga bunday quruq savlatdan iborat deputatlar kerak emas, degan achchiq gaplar ham bo'ldi. Hatto ayrim partiya rahbarlari ham shunday so'zlarni eshitishiga to'g'ri keldi. Demak, ularning shunchaki quruq gap bilan yurganini odamlar bildi va shunga qarab bahosini berdi.

Bugun saylovchilarning nomzodlarga nisbatan bunday katta talablar qo'yishi xalqimizning siyosiy saviyasi ortib borayotganidan dalolat beradi. Partiyalar ham shuni his etib, shunga yarasha ish yuritishi lozim. O'zini nomiga "partiya" deb atab, odam-

larning dard-u tashvishlaridan bexabar yuradigan, o'z tarafdarlarini bilmaydigan, ularning manfaatlarni himoya qilmaydigan partiya qanday qilib siyosiy kuch bo'la oladi? Nima, ular faqat poytaxtda, ma'lum bir odamlar doirasida partiya bo'lib yuradimi? Qachon ular xalqning ichiga kirib bora-di?

Bir fikrni hammamiz chuqur anglab olishimiz kerak. Bizda mintaqaviy partiyalar yo'q va bo'lmaydi ham. Chunki turli mintaqaviy partiyalar orqali yagona mamlakatimizning bo'linib ketishiga biz hech qachon yo'l qo'yamaymiz. O'zingiz o'ylang, agar Surxondaryoda alohida, Qoraqalpog'iston yoki Farg'ona vodiysida alohida partiyalar tashkil etilsa, yurtimizning buguni va ertangi kuni qanday bo'ladi? Axir, biz bunday holatda turli mintaqalar o'rtasi-dagi tortishuv va ziddiyatlar girdobida qolib ketamiz-ku. Shuning uchun o'zini partiya degan har qaysi siyosiy kuch mana shu parlamentga bo'ladi-gan saylovlar orqali sahnaga chiqib, qonun doirasida faoliyat yuritishi darkor. Bu haqiqatni hech qachon unutmaslik kerak.

Shuni alohida ta'kidlab aytmoqchiman, har qaysi partiya umummilliy partiya sifatida faoliyat yuritishi, faqat Markazda qolib ketmasligi va joylarda albatta o'z a'zolari, faollari va tarafdarlariga ega bo'lishi lozim. Agar shunday bo'lmasa, har qanday partiya siyosat sahnasidan tushib ketadi. O'ylaymanki, siyosiy partiyalarning rahbarlari bu gaplardan to'g'ri xulosa chiqaradi.

Yana bir bor aytaman, agarda har qaysi partiya muayyan ijtimoiy toifa yoki guruhning manfaatini ifoda etadigan bo'lsa, demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi bo'lgan saylovlar hisobidan dasturini amalga oshirish, o'z maqsadiga etish imkoniga ega bo'ladi.

Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov — demokratiya degani. Demokratiya — bu saylov degani. Chunki har qaysi partiya aynan saylov orqali o'zining tarafdarlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim uning g'oya va dasturlarini qo'llab-quvvatlayapti — bularning barchasini amalda ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Xullas, hamma narsa saylov paytida ma'lum bo'ladi. Qaysi partiya kimni o'z g'oyalariga ishontira olgani, kimning manfaatlarni ifoda etgani, shu bilan birga, kimning ularga ergashayotgani, kimlar ishonch bildirgani faqat saylov natijalariga ko'ra ayon bo'ladi. Aynan saylov paytida partiyalar o'zining asosiy va ustuvor fikr-qarashlarini, hayotni qanday yaxshilash, islo-hotlarni qanday amalga oshirish, O'zbekiston deb atalmish mustaqil davlatning ertangi hayotini qanday barpo etish borasidagi g'oyalarini ilgari suradi.

Lekin amalda hamma vaqt ham shunday bo'layotgani yo'q. Mana, masalan, "Milliy tiklanish" partiyasini oladigan bo'lsak, uning ta'siri joylarda uncha sezilmayapti. Ushbu partiya faollari buni tan olib, bu haqda har tomonlama o'ylab ko'rsa, foydadan xoli bo'lmasdi.

Bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi nima hisobidan g'alaba qildi? Men bu savolga, avvalambor amaliy ishlari, aniq dasturi bilan, deb javob bergan bo'lardim. Bu partiya qisqa davr ichida qanday qilib xalqimizning turmush darajasini yaxshilash, O'zbekistonni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga qo'shish, iqtisodiy yuksalishga erishish mumkin, degan masalalar bo'yicha o'z g'oya va maqsadlarini ko'pchilikning ongiga singdirib, ularning ishonchini qozona oldi. Bu — birinchidan.

Ikkinchidan, bu partiya saylovga tashkiliy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rdi. Men boshqa siyosiy partiyalarni ham shu partiyadan o'mak olishga chiqirgan bo'lardim.

Har qanday saylov — bu jiddiy siyosiy kampaniya. Shuning uchun unga yengil-yelpi qarab bo'lmaydi. Chunki partiyalarning taqdiri, ta'bir joiz bo'lsa, hayot-mamoti saylovlar jarayonida hal bo'ladi. Bordi-yu biror-bir partiya saylov paytida yetarlicha ovoz ololmasa, inqirozga uchrashi muqarrar.

Xalq demokratik partiyasi ham ana shu haqiqatni tushungan holda saylovga yaxshi tayyorgarlik ko'rgani qo'lga kiritgan natijalaridan ma'lum bo'ldi. Men ana shu ikki partiya, avvalo, xalqning ichiga chuqur kirib borgani, zamon talablari asosida faoliyat yuritgani uchun mana shunday natijalarga erishdi, deb o'ylayman.

Ayniqsa, Xalq demokratik partiyasining saylovlar arafasida aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash haqidagi dasturiy chiqishlari uning ijobiy natijalarga erishishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yana bir narsaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Parlamentimizda o'z vakillariga ega bo'lgan partiyanlar bu natijalar bilan kifoyalanib qolmasdan, hozirdanoq keyingi saylovlar haqida o'yłashi, ularga jiddiy tayyorgarlik ko'rishlari kerak. Bunda saylovchilar bilan doimiy muloqotda bo'lish, ularni parlamentdagi partiya fraksiyasi tomonidan qonunchilik borasida qilinayotgan ishlardan xabardor etib, el-yurt oldida hisobot berib turish ayniqsa muhim.

Bugungi kunda, xuddi eski davrda bo'lgani kabi, bir qishloqqa borib bir xil, ikkinchisida esa boshqacha va'da berish zamoni o'tdi. Endi bunaqa yo'llar bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi.

Mana shu saylovlar davomida 54 ta tashabbus-kor guruhlardan 12 nafar deputat saylandi. Bu deputatlar o'zlarini oddiy odamlar orasidan chiq-qan, ularning dardu tashvishlarini yaxshi biladigan nomzodlar deb ko'rsatgani, saylovchilarni shunga ishontira olgani uchun ham shunday natijalarga erishdi. Lekin, shuni ham tan olishimiz kerakki, saylov paytida "oddiy odamlar orasidan chiqqaman", deb ko'ksiga urib gapiradigan, ishi bitgandan keyin esa deputatlik vakolati tugaguncha ularga qorasini ham ko'rsatmay yuradigan kishilar ham

topiladi. Shuning uchun ham deputat degan yuksak ishonchga sazovor har qaysi inson avvalo o'zi uchun ovoz bergan odamlar haqida o'yashi zarur. Bu ham demokratiyaning yana bir belgi-alomati, desa bo'ladi.

Hurmatli do'stlar, mana, sizlarni xalq deputat etib sayladi. Endi shu palatada qonunlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish, qonun ustuvorligini ta'minlash — sizlarning asosiy vazifangiz bo'ladi.

Bu vazifalarни to'liq ado etish uchun har qaysi deputat, har qaysi fraksiya mamlakatimizda huquqiy davlat qurish ishiga munosib hissa qo'shishi lozim. Nima uchun biz qonun ustuvorligiga katta ahamiyat bermoqdamiz? Buning sababi shundaki, qonunchilik davlatning kuch-qudratini, uning xalq xohish-irodasiga tayanib ish olib borishini ko'rsatadi.

Shuni ham esda tutishingizni istardim: Qonunchilik palatasining hozirgi tarkibi avvalgi Oliy Majlis tarkibidan tubdan farq qiladi.

Yashirishning hojati yo'q, o'tgan chaqiriq parlamentdagi partiya fraksiyalari nomigagina faoliyat ko'rsatgan edi. Men ulardan birortasining muayyan bir qonun loyihasini taklif qilib, uni sessiya majlisi tasdig'idan o'tkazish, hayotga tatbiq qilish bo'yicha aniq tashabbus bilan chiqqanini eslay olmayman. Qani, o'zingiz ayting, qaysi fraksiya qaysi qonunning asosiy muallifi yoki muharriri bo'ldi? Ularni ishlab chiqib, muhokamalardan

o'tkazishda jonkuyarlik ko'rsatib, qattiq kurash olib bordi?

Bugun esa vaziyat butunlay boshqacha. Endi har bir fraksiya o'zi Qonunchilik palatasidagi qaysi qo'mita rahbarligiga nomzod ko'rsatgan bo'lsa, o'sha qo'mitaning faoliyatiga javobgar bo'ladi. Shu ma'noda, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 3 ta qo'mita, Xalq demokratik partiyasi va Fidokorlar partiyasi 2 tadan qo'mita faoliyati uchun mas'uldir. "Milliy tiklanish" partiyasi esa zamonaviy axborot kommunikatsiyalari bo'yicha ish olib boradi. "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi esa ko'proq davlat budgeti bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanadi.

Muxtasar aytganda, bugun Qonunchilik palatasida qonunlarni ishlab chiqish partiyalar vakolatiga topshirildi va barchamiz buni yaxshi anglashimiz lozim. Biz ishni ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda tashkil qilishimiz, bunga o'rghanishimiz zarur.

Bizning zaif tomonimiz — haqiqiy oppozitsiya yo'q. Hukmronlik qilayotgan kuchga nisbatan oppozitsiya yo'q. Biz oppozitsiya deganda rasmiy siyosatga qarshi kuchni tushunamiz. Qonunchilik palatasida haqiqiy oppozitsiya paydo bo'lishi lozim. Bu yerda tortishuvlar bo'lishi kerak. Bo'lmasa, haqiqatni yuzaga chiqarib bo'lmaydi. Haqiqat bahslarda tug'iladi, deb bejiz aytilmagan.

Shu sababli qonun loyihalarini shoshilmasdan, atroflicha muhokama qilish darkor. Takror aytishga to'g'ri keladi, "vaqt ni tejash" degan so'z bu zalda

bo‘lmasligi kerak. Qonunlar puxta ishlanishi, bu palatada ishchanlik muhitini qaror toptirish lozim.

Shu bilan birga, o‘z raqibiga, boshqa partiya vakiliga hurmat bilan qarash — bu oliyjanoblik ifodasi. Bordi-yu biror-bir tajribasiz deputat o‘z fikrini bildirsa va u uncha to‘g‘ri bo‘lmasa, shunga ham hurmat bilan qarash darkor. Buni ham esdan chiqarmasligingizni xohlardim.

Parlament — bu jamiyat hayotini oynadek yaqqol aks ettiradigan ko‘zgu. Binobarin, jamiyatda qanday intilish, fikr va qarashlar mavjud bo‘lsa, ular parlamentdagi muhokama va munozaralarda o‘z ifodasini topishi kerak. Ana shunda parlament xalqning xohish-irodasi, ezgu maqsadlarini mujassam eta oladi. Shundan keyin odamlar bunday qonunchilik hokimiyatiga ishonadi. Ular biron-bir yangilikni biz parlament minbaridan eshitdik, deb o‘z qishlog‘i yoki mahallasida gapirib yursa, shundagina deputatlar ishining samarasi, ta’siri seziladi. Umuman, deputat degani doimo o‘z saylovchilari, ularning tashvish va muammolari bilan yashashi kerak.

Eng yomon narsa — bu odamning oyog‘i yerdan uzilishidir. Agarda kim qayerda tug‘ilgani, kimning farzandi ekanini, qaysi zamin, qaysi tuproqning suvini ichib, tuzini totganini esdan chiqarsa, bilingki, u o‘zini butunlay yo‘qotgan bo‘ladi. Bunday odamning kelajagi bo‘lmaydi.

Bizning oldimizda turgan yana bir masala — qabul qilingan qonunlarimiz ijrosini ta’minlashdan iborat.

Ma'lumki, qonun ijrosini Hukumat amalga oshiradi. Uning asosiy vazifasi qonunlarni so'zsiz ijro etishdir. Qonunlar so'zsiz bajarilgandagina biz huquqiy davlat qurishimiz mumkin. Siz, muhtaram deputatlar qonunlarni qabul qilar ekansiz, ularning ijrosi bilan ham qiziqishingiz, kerak bo'lsa, tegishli mutasaddi rahbarlardan, birinchi navbatda, ijro hokimiyatidan shuni talab qilishingiz lozim. Shuning uchun ham har bir qonun qabul qilinganda uning reglamentida ijrosini ta'minlash mexanizmlari ham ko'rsatib o'tiladi.

Agarki, qayerdadir biron-bir muammo paydo bo'lsa, sizlar, avvalambor, bu masala bo'yicha qonun qabul qilinganmi yoki yo'qmi, deb o'zingizga savol berishingiz, imkon qadar shunday vaziyatga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishingiz zarur. Lekin, afsuski, qonunchilik ishida shu paytgacha bunday yondashuv, bunday tajriba bo'lgani yo'q va endi bunday holatni bartaraf etish fursati yetdi.

Bordi-yu ijro hokimiyati qonunni buzsa, uni poymol qilsa, uning tanobini tortib qo'yadigan kuch — bu mustaqil sud hokimiyatidir. Chunki sud hokimiyati qabul qilingan qonunlarning ijrosini adolatni joy-joyiga qo'yish nuqtayi nazaridan nazorat qilib boradi.

Yuqorida sanab o'tilgan uchta hokimiyat tarmoq'ini birlashtiradigan narsa — bu milliy g'oya. Buni barchamiz yaxshi tushunib olishimiz kerak. Bizning milliy g'oyamiz esa yurt tinchligi, Vatan ravnaqi,

xalq farovonligi kabi yuksak tushunchalarni o'z ichiga olishi, o'ylaymanki, sizlarga yaxshi ayon.

Hammamizning maqsadimiz shu muqaddas ona yurtimizning tinchligi va taraqqiyotini ta'minlash ekan, bahamjihat bo'lib, har birimiz o'z vazifamizni sidqidildan bajarishimiz kerak.

Shu yo'lida barchangizga baxt va omad yor bo'lishini tilayman.

*O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Qonunchilik  
palatasining birinchi  
yig'ilishida so'zlangan nutq,  
2005-yil 27-yanvar*

## **BIZNING BOSH MAQSADIMIZ — JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA YANGILASH, MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA VA ISLOH ETISHDIR**

Hurmatli deputatlar!

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, azizlarni Qonunchilik palatsi deputati va Senat a'zosi degan yuksak nomga, xalqimiz ishonchiga sazovor bo'lganingiz bilan tabriklab, barchangizga o'zimning hurmat-ehtiro-mim va ezgu tilaklarimni bildirishga ruxsat bergaysiz.

Ilk bor ikki palatali parlamentga bo'lib o'tgan saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohida, g'oyat muhim o'rinnegi egalladi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Konstitutsiyamiz, respublikamizning saylov qonunchiligi talablari hamda xalqaro me'yor va qoidalarga to'liq amal qilgan holda, ochiqlik va siyosiy bag'rikenglik sharoitida o'tgan saylovlar, mamlakatimiz demokratik qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil qadamlar bilan ilgari borayotganining yana bir yorqin dalili bo'ldi.

Bugun O'zbekistonda bo'lib o'tgan saylovlarga yakun yasar ekanmiz, quyidagi xulosalarni chiqarishimizga to'liq asos bor.

**Birinchidan**, ushbu saylovlar biz uchun chinakam demokratik tamoyillar, saylovnning me'yor va

mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yaxshi mакtab vazifasini o'tadi.

**Ikkinchidan**, mamlakatimizda ikki palatali parlamentga saylovlar o'tkazish bo'yicha qabul qilingan, ko'п jihatdan o'ziga xos tizim hamda saylovlar jarayonining o'zi respublikamizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining keskin jonlanishi va faolligini kuchaytirisha, aytish kerakki, ularning mas'uliyati ortishida g'oyat kuchli omil bo'ldi.

Saylovlarda qatnashgan barcha siyosiy partiylarning qonunga muvofiq ravishda bugun parlamentning Qonunchilik palatasida o'z fraksiyalarini tashkil etish uchun yetarli o'ringa ega bo'lganining o'zi ham ularning saylovchilar tomonidan munosib e'tirof etilganidan dalolat beradi.

Saylovchilar tashabbuskor guruhlari tomonidan Qonunchilik palatasiga ko'rsatilgan 54 ta nomzoddan 12 nafar mustaqil deputat saylangani ham alohida e'tiborga loyiq, deb o'layman.

**Uchinchidan**, saylovlarni o'tkazish jarayonida saylovchilarimiz o'zlarining siyosiy va fuqarolik saviyasi yetukligini, o'z hayoti, o'z kelajagini umume'tirof etilgan demokratik qadriyatlar asosida qurishga qodir ekanliklarini namoyon etdilar.

**To'rtinchidan**, bo'lib o'tgan saylovlar yana bir haqiqatni yaqqol tasdiqladi: mamlakatimizning demokratik yangilanish va erkin ijtimoiy tuzumga xos bo'lган barcha asosiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan fuqarolik jamiyati barpo etish

yo'lidagi bosqichma-bosqich, izchil harakati hozirgi kunda hech qanday kuch to'xtata olmaydigan muqarrar, qonuniy jarayonga aylandi. Shunday deb aytishga bugun bizning barcha asoslarimiz bor.

**Va nihoyat**, bo'lib o'tgan saylovlar avvalgilardan nainki ochiqligi va keskin kurash olib borilishi bilan, balki, avvalo, aksariyat saylovchilarning bu jarayonlardan har tomonlama xabardorligi, ularga ongli munosabati bilan ham tubdan farq qildi.

Fuqarolarimiz saylovlarga mamlakatimiz hayotidagi eng muhim, jamiyatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga, demakki, har bir saylovchi taqdiriga ta'sir ko'rsatadigan siyosiy voqeа sifatida yondashdilar. Bu ham bizning eng katta yutuqlarimizdan biridir.

Hurmatli xalq vakillari!

Bugun men Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi qo'shma majlisida so'zga chiqar ekanman, asosiy maqsadim — jamiyatimizni demokratlash-tirish va yangilashning konsepsiyasini, shuningdek, mamlakatimizni 2005-yil va kelgusi davrda modernizatsiya va isloh etish bo'yicha oldimizga qo'yiladigan asosiy vazifalarni qisqacha bayon etishdir.

Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi —bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir.

Mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlashni istardimki, “boshqariladigan iqtisod” yoki “boshqariladigan demokratiya” deb atalmish modellar bizga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Albatta, biz, avvalgidek, davlat va jamiyatni isloh etish hamda modernizatsiya qilishda o‘zbek modelining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bosqich-ma-bosqichlik tamoyiliga bundan buyon ham qat’iy amal qilamiz. Ammo, mustaqil taraqqiyotimizning o‘tgan davrida o‘zini oqlagan bu tamoyilning yuqorida tilga olingan modellarga hech qanday aloqasi yo‘q.

Biz bugungi kunda mintaqamizda yashayotgan xalqlar go‘yoki hali demokratiya uchun tayyor emas, bu borada “pishib yetilmagan”, ular oldin kambag‘allik va qashshoqlik bilan bog‘liq muammolarni hal qilishlari zarur, shundan keyingina demokratiya qurish, siyosiy va iqtisodiy islohotlar uchun shart-sharoit yuzaga keladi, degan gaplarni ham ko‘p eshitamiz.

Bunday bayonot va yondashuvlar — avvalo, tarixni bilmaslik, xalqning bunyodkorlik salohiyatiiga, kuch-qudratiga ishonmaslik, aytish mumkinki, hozirgi dunyoni jadallik bilan o‘zgartirib borayotgan obyektiv, global jarayonlarni tushunmaslik natijasidir.

Bugun, hamma bo‘lmasa ham, lekin ko‘pchilik odamlar yaxshi anglaydiki, faqat zamon bilan teng qadam tashlayotgan, tez o‘zgarayotgan dunyoning

qat'iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi mumkin.

Shu ma'noda, mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi. Faqat mana shu asosda, mana shu negizda mamlakatdagi kambag'allik va qoloqlik muammolarini hal etish mumkin va zarur. Inkor etib bo'lmaydigan ushbu haqiqat shu muqaddas zaminizda yashaydigan har bir insonning qon-qoniga, vujudiga singib ketishini istardim.

**Muhtaram deputatlar!**

Biz bugun hayotimizni isloh qilish va yangilash haqida gapirar ekanmiz, o'z oldimizga qo'ygan quyidagi ustuvor vazifa va yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

**I. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtaida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat.**

Shu borada:

Prezident vakolatlarining bir qismini Parlamentning yuqori palatasi — Senatga va hukumatga o'tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi — Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish;

ikkinchidan, Bosh vazir va umuman, mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, mas'uliyatini kuchaytirish;

uchinchidan, sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Biz oldimizga qo‘yan maqsadni soddagina ifodalamoqchi bo‘lsak — har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo‘ladimi — bularning barchasi quyidagi talablarga javob berishi shart. Ya’ni, har qaysisi o‘z vazifasini anglashi, o‘z mas’uliyatini his qilishi, o‘z yukini ko‘tarishi va ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z aravasini mustaqil ravishda tortishi darkor.

**Ikki palatali parlamentni barpo etishdan maqsad:**

**Birinchi** — parlament o‘z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo‘lgan o‘zaro muvozanat va cheklovlardan tizimini yaratish.

**Ikkinci** — Qonunchilik palatasi o‘z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish.

**Uchinchi** — Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo‘lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umum davlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish.

**To‘rtinchi** — aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko‘lamini yanada kengaytirish.

Aynan shu maqsad yuqori palata — Senatning viloyat, shahar va tuman vakillik organlari deputalaridan saylanishi zamirida ham mujassam.

Yuqorida zikr etilgan maqsad va yo‘nalishlar-ning barchasi avvalo mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko‘zlaydigan “**Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyatni sari**” degan tamoyilni o‘zida ifoda etadi.

Bunda nimalar nazarda tutilmoqda?

**Avvalambor**, hokimiyat vakolatlarining ma’lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o‘tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo‘sishmcha tarzda yangilarini ishlab chiqish.

Yana bir muhim vazifa — o‘zini o‘zi boshqarish organlari — mahalla, mahalla qo‘mitalari va qishloq fuqarolik yig‘inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim.

**Ikkinchidan** — siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi roli va ta’sirini tubdan kuchaytirish.

Shu munosabat bilan partiyalar aholi o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonish maqsadida izchil ish olib borishi, siyosiy tajriba orttirishi, siyosiy yetuklikka intilishi va eng muhimi, moliyaviy mustaqillikka erishish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va o‘zining doimiy saylovchilariga tayanish uchun faol harakat qilishi kerak. Dasturi va yo‘nalishidan qat’iy nazar, shak-shubhasiz, barcha partiyalarimiz mana shunday yo‘lni bosib o‘tishi muhim ahamiyatga ega.

Men shu borada aholining turli ijtimoiy va sotsial guruhlari manfaatlarini ifodalovchi, mamlakatimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy

institutlari bo‘lgan nohukumat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta’sirini oshirishga katta e’tibor berayotganimizni ham alohida ta’kidlamoqchiman.

Odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda bu tashkilotlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Hech shubhasiz, mening nazarimda, deputatlar korpusi, siyosiy partiylar va nodavlat, nohukumat jamoat tashkilotlarining jamiyatda obro‘-e’tibori ortib borishi, mavqeyi mustahkamlanishi bilan, ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining asosiy vositsiga aylanadi.

Ayni vaqtida, imkoniyatdan foydalanib, nohukumat jamoat tuzilmalarini shakllantirish jarayoniga xos ba’zi masalalar xususida ham to‘xtalib o’tmoqchiman.

Shuni ham ta’kidlashga to‘g‘ri keladiki, ularning ayrimlarini, avvalo turli homiylik ko‘magida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlarini tekshirish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday tashkilotlar faoliyati ular ro‘yxatdan o‘tish chog‘ida taqdim etgan nizom va dasturlari doirasidan anchagina chetga chiqib ketmoqda va muayyan burytmaga asoslangan maqsadlarni ko‘zlamoqda.

Tabiiyki, biz bunday holatlar bilan murosa qila olmaymiz. Qonunchiligidizga zid bo‘lgan bu kabi

loyihalarning O'zbekistonda kelajagi yo'q ekanini aytishga hojat bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.

Yana bir bor takrorlayman, biz mamlakatni modernizatsiya va isloh etish masalalarida turli inqiloblar va aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlariga qarshimiz.

Ma'lumki, inqiloblar, odatda, hamma davrlarda ham zo'ravonlik, qon to'kish va ajdodlar yaratgan barcha narsani johillik bilan vayron qilish vositasi va quroli bo'lib kelgan.

Aqidaparastlik esa, u qanday qiyofada bo'lishidan qat'iy nazar — bu diniy aqidaparastlik bo'ladimi yoki kommunistik aqidaparastlik bo'ladimi — o'z mafkurasiga, hayotga qarashlariga mos kelmaydigan hamma narsani inkor etadi va «kimki biz bilan emas ekan, u bizga qarshi» degan tamoyil asosida harakat qiladi.

Ishonchimiz komilki, demokratiyani va turli «ochiq jamiyat modellari»ni eksport qilib bo'lma-ganidek, davlat qurilishining universal loyihasini ham tashqaridan import qilish yoki tiqishtirish mumkin emas. Aslida, hammaga birdek ma'qil bo'ladigan bunaqa modelning o'zi umuman yo'q.

Lo'nda qilib aytganda, biz tadrijiy, ya'ni evolutsion izchillik xususiyatlariga ega bo'lgan islohot va o'zgarishlar tarafborimiz. Faqat bu yangilanishlar ijtimoiy munosabatlar va turmush tarzining o'zgarishi, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilishi darkor.

## **II. Biz hokimiyatning uchinchi tarmog'i — sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirishga alohida ahamiyat beramiz.**

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sud-huquq tizimi qurilishining mutlaqo yangi Konsepsiysi amalda joriy etildi.

Sudlarning jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi. Qonunchilikka binoan sud ishlarini appellatsiya va kassatsiya tarzida ko'rib chiqish institutlari joriy etildi, tergovsurishtiruv va kishilarni hibsda saqlash muddatlari sezilarli darajada qisqartirildi, ishlarni sudlarda ko'rib chiqishning qat'iy muddatlari belgilandi.

Sud sohasida kadrlarni tanlash va tasdiqlashning samarali va demokratik huquqiy mexanizmi yaratildi, sud qarorlarini ijro etish bo'yicha yetarlicha vakolatlarga ega bo'lgan departament faoliyat ko'rsatmoqda, sudlarning o'zi esa ularga xos bo'limgan vazifalardan ozod etildi.

Prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini jiddiy cheklash bo'yicha qonunchilik normalariga zarur o'zgartishlar kiritildi. Bugungi kunda sud jarayonida tortishuv tamoyili, ya'ni prokuror bilan advokat huquqlarining tengligi ta'minlanmoqda. Mamlakat jinoiy qonunchiligini erkinlashtirish yuzasidan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jinoyatlarning tasnifi tubdan qayta ko'rib chiqildi va o'zgartirildi, o'ta og'ir bo'limgan toifaga kiruv-

chi hamda ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan jinoiy harakatlar tarkibi sezilarli darajada kengaytirildi.

Natijada faqat so‘nggi ikki yarim yil ichida katta ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan qonunbuzarlikka yo‘l qo‘yan besh mingga yaqin kishi ozodlikda saqlandi va ular tomonidan 11 milliard so‘mdan ortiq miqdordagi moddiy zarar qoplandi.

Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlar jazoni o‘tash sharoitlarini ancha yaxshilash, mahkumlarga muddatidan ilgari ozod bo‘lish huquqini beradigan moddalarni ko‘paytirish, jazoni o‘tash joylarida yashash tartibi va sharoitini sezilarli darajada yengillashtirish imkonini yaratdi.

Natijada jazoni manzil-koloniyalarda o‘tayotgan shaxslarning ulushi qamoqda saqlanayotganlar soniga nisbatan ancha ko‘paydi. Ya’ni, 1990-yilda manzil-koloniyalarda jazoni o‘tayotgan shaxslar mahbuslarning umumiy soniga nisbatan 7 foiz bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda bu raqam 21 foizni tashkil etmoqda.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda har 100 ming aholiga nisbatan qamoqdagilar soni 158 kishini tashkil etadi. Ayni paytda ushbu ko‘rsatkich, masalan, AQSHda — 715, Rossiyada — 584, Ukrainada — 416, Qozog‘istonda — 386, Qirg‘izistonda — 390, Estoniyada — 339 kishidan iborat.

Shuni ta’kidlash lozimki, qonunchilikda odil sudlovni amalga oshirish shakllaridan biri — yarashuv institutining joriy etilishi qonuniylikni mustahkamlashda ijobiy omil bo‘ldi.

Xalqimizning tabiatiga mos keladigan mana shunday usuldan foydalanish o'tgan davr mobaynida 26 mingdan ortiq kishini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkonini berdi.

Sud-huquq tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy ishlarni qayd etar ekanmiz, bu sohada hali yechimini kutib turgan jiddiy muammolar borligini ham inkor eta olmaymiz. Bu muammolar, birinchi galda, sndlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta'minlash bilan bog'liqdir.

Sud — odil sudloving oliy nuqtasi va uning rolini oshirish huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi qonuniy jarayon. Shu munosabat bilan prokuratura vakolatlarining bir qismini sndlarga o'tkazish hozirgi zamonning mantiqiy talabidir. Va bu, eng avvalo, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, daxlsizligini cheklash bilan aloqador masalalarga tegishlidir.

Bugungi kunda jinoiy va protsessual qonunchiligmizning dastlabki tergov va sudgacha bo'lgan jarayon ustidan sud nazoratini kuchaytirish bilan bog'liq ayrim qoidalarini qaytadan ko'rib chiqish zarurati vujudga keldi.

Boshqa demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarini qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sndlarga o'tkazish kerak, deb o'layman.

Biroq, ushbu jarayon tashkiliy-huquqiy masalalarni puxta va jiddiy tarzda ishlab chiqishni hamda

sud tizimi va u bilan bog'liq boshqa huquq-tartibot va prokuratura organlarining ushbu o'zgartishlarni kiritish uchun zarur tayyorgarlikka ega bo'lishini taqozo etadi.

**Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala — bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir.**

Bu o'rinda gap, ayrim mamlakatlarda bo'lganidek, o'lim jazosiga moratoriyl qo'llash, ya'ni mahkum yillar davomida ushbu jazo chorasi qachon ijro etilishini kutib yotishi to'g'risida emas, balki uni butunlay bekor qilish haqida bormoqda.

Biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ushbu masalani hal qilish ustida ish olib bormoqdamiz. O'tgan o'n yildan ortiqroq vaqt mobaynida o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar tarkibi 33 tadan 2 tagacha qisqartirildi.

Endilikda faqat terrorchilik va og'irlashtiruvchi vaziyatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchungina o'lim jazosi berilishi ko'zda tutilgan. Ayni vaqtida qonunchiligidan o'lim jazosining xotin-qizlarga, voyaga yetmaganlar va 60 yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishini man etadi.

Bundan bitta xulosaga kelish mumkin — ushbu masala yetilib kelmoqda va uni hal qilish lozim, lekin, buning uchun, fikrimizcha, kamida ikki-uch yil vaqt kerak.

Birinchi navbatda aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borish lozim, chunki bugungi

kunda ularning ko‘pchiligi o‘lim jazosining bekor qilinishiga qarshi. Ikkinchidan, o‘lim jazosi o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli jazoni o‘tashga hukm qilinadigan shaxslar uchun tegishli joylar qurish kerak.

**Yana bir o‘ta muhim masala** — sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mas‘uliyatini kuchaytirish haqida alohida to‘xtalishni o‘rinli, deb bilaman.

Takror-takror aytishga to‘g‘ri keladi, bu sohada xizmat qiladigan odamlar o‘zining professional va fuqarolik burchini, o‘z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi, hech mubolag‘asiz, butun hokimiyatning obro‘sni va kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo‘lishini belgilaydi.

Hech shubhasiz, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning darajasi, uning amaliy samarasi ko‘p jihatdan huquq-tartibot, prokuratura va sud organlari tizimining o‘zida bu illatga qarshi qanday kurash olib borilayotgani bilan bog‘liqidir.

Yana bir masala. Biz barchamiz, birinchi navbatda qonun himoyachilari, sho‘ro davridan qolgan eski illatlardan to‘la xalos bo‘lishimiz, **tadbirkorlik, biznes va xususiy sektor vakillariga nisbatan munosabatimizni tubdan o‘zgartirishimiz kerak**. Ming afsuski, o‘zimiz yaxshi qonunlar yaratamiz-u, o‘zimiz ularga qat’iy rioya qilmaymiz.

Tadbirkorlar faoliyatiga noxolis, tirmoq ostidan kir qidirish kayfiyati bilan qarashdan butunlay voz kechish, aksincha, ularning manfaatlari va qonu-

niy huquqlari himoyasini to'la ta'minlash fursati etdi.

Mamlakatimiz kelajagini belgilab beradigan bu toifa vakillariga shunday huquqiy zamin, imtiyoz va kafolatlar tizimini yaratish kerakki, ular o'zi, o'z oilasi, butun mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi yo'lida emin-erkin va aniq maqsad bilan mehnat qila olsinlar.

**III. O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti — bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarни amalga oshirishdir.**

Bu boradagi asosiy vazifa — mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lmish matbuot, televideniya, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat.

Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruva tuzilmalari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo'lidan ilgari borishimizga to'siq bo'lib turgan nuqsonlar, hayotdagи dolzarb muammolar xususida oshkora, professional tahliliy materiallarni kutadi.

Shuni tan olish kerakki, biz mustabid tuzum merosi va aqidalaridan, uning mafkurasi, ma'muriy nazorati va senzurasidan juda katta qiyinchilik bilan xalos bo'lyapmiz.

Halgacha jurnalistlar faoliyatida o'z-o'zini senzura qilish, yuqoridan buyruq kutish kayfiyatları sezi-lib turibdi.

Ayni paytda, shuni ham qayd etish zarurki, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikri va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to'g'risida so'z yuritib bo'lmaydi, degan tushuncha jamoatchiligidimiz o'rtasida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

**Birinchidan** — avvalo, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash kerak. Bu ularning mustaqil faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun assosiy omil bo'lishi lozim.

Biz matbuot va axborot erkinligining kafolatini bozor munosabatlari, axborot maydonida sog'lom raqobat tamoyillarining rivojlanishida ko'ramiz.

Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mustaqil jamoatchilik fondi tuzish fursati yetdi, deb o'ylayman.

Bu fondning tashkil etilishi mamlakatimizda iqtisodiy jihatdan o‘zini o‘zi ta’minlay oladigan elektron, bosma va boshqa turdagи, shu jumladan, xususiy axborot vositalarini o‘z ichiga oluvchi davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarining yaxlit tizimini shakllantirish jarayonini qo‘llab-quvvatlashga yordam bergen bo‘lar edi. Lekin bu — ommaviy axborot vositalari faqat ushbu fond mablag‘lari hisobidan faoliyat yuritadi, degan gap emas. Barchaga ayonki, ular o‘z faoliyatlari hisobidan vujudga keladigan moliyaviy manbalarga ham ega bo‘lishi lozim.

Ushbu fondning moliyaviy asosini ham ichki, ham tashqi, shuningdek, davlat va nodavlat tijorat tuzilmalarining homiylik mablag‘lari tashkil etmog‘i kerak.

Fond mablag‘lari nafaqat nodavlat elektron va bosma ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va mustahkamlashga, ayni paytda jurnalistlar va texnik xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish kabi muhim masalalarga ham yo‘naltirilishi darkor.

Bu ish, jumladan, mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi ta’lim muassasalari va tele-radio jurnalistika markazlarida malaka oshirish, treninglar tashkil etish orqali amalgalashishi lozim.

**Ikkinchidan**, bugungi kunda davlat televideniyasi negizida jamoatchilik televideniyasi kanalini bosqichma-bosqich shakllantirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tele-radio industriya bozorini rivojlantirish, tijorat va hududiy nodavlat tele-radiostudiylar-ning faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, bu sohada g'oyalar va dasturlarning ijodiy raqobat muhitini vujudga keltirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak.

Zamonaviy raqamli axborot texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish zarur. Afsuski, bugungi kunda viloyatlar telekanallari va studiyalarining moddiy-texnika bazasi va ularda ishlayotgan xodimlarning kasb mahorati hali-beri zaifligicha qolmoqda.

O'ylaymanki, hozirgi axborot, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishga hojat yo'q.

#### **IV. Navbatdagi o'ta muhim masala — tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlari haqida ham alohida to'xtalib o'tmoqchiman.**

Bugun hech mubolag'asiz, g'urur va iftixon bilan aytish mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan tarixan qisqa davr ichida mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnnini egalladi.

O‘zbekistonning jahondagi obro‘-e’tibori  
yuksalib borayotgani eng avvalo:

— yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti  
islohotlarini amalga oshirish natijasida qo‘lga kiriti-  
layotgan ulkan ijobjiy o‘zgarishlarda, ularning xal-  
qaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishida  
mujassam bo‘lmoqda;

— bu — davlatimizning jahon ahliga yaxshi  
ma’lum bo‘lgan, mintaqamizda barqarorlik va xavf-  
sizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari-  
ning amaliy samarasida o‘z ifodasini topmoqda;

— va nihoyat, bu — mamlakatimizning xalqaro  
siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama  
puxta ishlangan, chuqur o‘ylangan tashqi siyosa-  
tining natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugun biz 2005-yil va keyingi yillar uchun  
mo‘ljallangan tashqi siyosatimizning ustuvor  
yo‘nalishlarini belgilashda bu masalaga dunyoda va  
mintaqamizda vujudga kelayotgan murakkab va zid-  
diyatli vaziyatni inobatga olib, hayotiy ahamiyatga  
ega bo‘lgan milliy manfaatlarimiz va mamlakatimiz  
xavfsizligini ta‘minlash nuqtayi nazaridan yondash-  
mog‘imiz kerak.

Bugun mana shu yuksak minbardan turib ayt-  
moqchiman: **davlatimiz tashqi siyosatining ma-  
no-mazmuni va maqsadi bitta — u ham bo‘lsa,  
O‘zbekiston manfaati va yana bir bor O‘zbekiston  
manfaatidir.**

Biz milliy manfaatlarimiz mos keladigan barcha  
mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilishga tayyormiz.

Ayni paytda xalqaro hayotning muayyan prinsipial masalalari bo'yicha qarashlarimizda tafovut bo'lgan davlatlar bilan ham ochiq muloqot olib borishga hozir ekanligimizni bildiramiz.

Biz xalqaro munosabatlarni mafkuralashtirishga bo'lgan har qanday urinishga qat'iyan qarshimiz.

**Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash**, bu mintaqani barqaror xavfsizlik hudu-diga aylantirishni tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo'nalishi etib belgilab olganmiz.

Biz integratsiya jarayonlari va bozor islohotlari ni rivojlantirishga, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Faqat o'zining tor milliy qobig'ida qolib ketmagan bozorgina xorijiy investitsiyalarning katta oqimini jalb qilib, mintaqa mamlakatlarining barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlay oladi.

Mintaqamizdagi hozirgi mavjud ahvolni real va xolis baholar ekanmiz, Afg'onistonidagi vaziyatni barqarorlashtirish va qayta tiklash borasida davom etayotgan ijobiylar bilan bir qatorda, **mintaqada strategik mavhumlik saqlanib qolayotganini ham tan olishga to'g'ri keladi**.

Bu yerda jahondagi yirik davlatlar va bizga qo'shni mamlakatlarining geostrategik manfaatlari mavjud bo'lib, ba'zida ular bir-biri bilan kelishmasligini ham kuzatish mumkin. Xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkoagressiya va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan boshqa transmilliy tahdidlar hamon saqlanib qolmoqda.

Bugun Afg'onistonda giyohvand moddalar ishlab chiqarish hajmining ortib borayotgani jahon hamjamiyati va mintaqalari qattiq tashvishga solayotir.

Biroq, bu illatga qarshi faqat giyohvand moddalar ishlab chiqarilayotgan hudud atrofida "xavfsizlik zona"sini tashkil etish, jazolash va ma'muriy chora-tadbirlarni kuchaytirish bilangina kurashish kifoya qilmaydi.

Bu muammoni birinchi navbatda Afg'oniston iqtisodiyotini chuqur tarkibiy o'zgartirish, aholini tinch va bunyodkorlik mehnati bilan band etish orqali hal qilish mumkin va lozim.

Bunday tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rish, mintaqada xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bog'liq boshqa vazifalarni faqat shu zaminda joylashgan davlatlarning faol ishtiroki bilan hal etish mumkin.

Aynan shu bois bu yerda yashayotgan xalqlarning muhim hayotiy manfaatlariga daxldor bo'lgan iqtisodiy, suv-energetika, transport-kommunikatsiya, ekologik xarakterdagи umummintaqaviy masalalarni yechish uchun o'zaro hamjihatlik va amaliy harakatlar mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Bu borada xalqimiz asrlar davomida shakllangan "Qo'shning tinch — sen tinch" degan hayotiy naqlga doimo amal qilib kelmoqda.** Biz bundan buyon ham shu tamoyilga qat'iy rioya qilamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti,

**Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorligimiz mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.**

**O'zbekiston tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini hal etishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti dorasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.**

Biz bu nufuzli tashkilotning mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlash hamda hozirgi zamonning boshqa dolzarb muammolarini hal etish borasidagi ishtiroki kengayishidan manfaatdormiz.

Shu bilan birga, jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog'liq mutlaqo yangi tendensiya va vaziyatlar, shuningdek, yangi tahlidlarning paydo bo'lishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalarini, birinchi navbatda, uning yetakchi organi —Xavfsizlik Kengashini isloh qilish va tarkibini qayta ko'rib chiqishni tezlashtirishni taqozo etmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotini modernizatsiya va isloh qilish qanchalik zarur bo'lmasin, biz bugungi kunda bu tashkilotning muqobili yo'q, deb hisoblaymiz.

Biz Yevropa qit'asidagi **Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi** va **NATO** kabi muhim tuzilmalar bilan yurtimizda demokratik va bozor islohotlarini chuqurlashtirish, mam-lakatimizda va umuman mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida hamkorlikni mustahkamlashdan manfaatdormiz.

**Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa yirik, nufuzli xalqaro moliya va iqtisodiyot tuzilmalari hamda tashkilotlari bilan hamkorlik kelgusida ham tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib qolaveradi.**

Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu tashkilotlarning roli va o‘rni benihoya katta.

**O‘zbekiston jahondagi yirik, xalqaro maydonda yetakchi o‘rin tutadigan davlatlar — AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e’tibor beradi.**

Biz Janubiy Koreya Respublikasi, Hindiston, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va Arab Sharqining ko‘plab mamlakatlari bilan yaqin munosabatlar o‘rnatganmiz.

**Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda.** XXI asr vabosi bo‘lgan ushbu illatga qarshi jahon hamjamiyatining murosasiz kurashini O‘zbekiston to‘la qo‘llab-quvvatlaydi.

Ayni paytda, biz faqat terrorizmning tashqi ko‘rinishlariga, begunoh odamlarni garovga oladigan, portlatadigan va o‘ldiradigan kimsalarga qarshi kurashish bilangina bu ofatni bartaraf etib bo‘imasligini bir necha bor ta’kidlaganmiz. Hayotning o‘zi shuni ko‘rsatmoqdaki, avvalambor, ushbu

balo-qazoning birlamchi manbalariga qarshi kurashish darkor.

Ya'ni, islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xom-xayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak.

Bugun mana shu minbarda turib, yana bir bor ta'kidlamoqchiman: biz xalqaro terrorizmni otabobolarimizdan qolgan muqaddas dinimiz — islom dini bilan bog'lashdek xavfli niyat va urinishlarni keskin qoralaymiz. Bunday oqibati o'ylanmagan va ig'vegarona xatti-harakatlar birinchi galda "Al-Qoida" yoki "Hizbut-tahrir" kabi eng ashadiy ekstremistik harakat va tashkilotlarga qo'l keladi.

Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak — bugun islom dinining ichida keskin qarama-qarshilik mavjud. Shu munosabat bilan bor kuch va salohiyatni safarbar etgan holda, ma'rifatli, bag'rikeng islom diniga musulmonlikni niqob qilib olib, uning ustidan hukmronlik qilishga urinayotgan jangari, mutaassib kuchlarga qarshi kurashishda yordam berish darkor.

Biz narkoagressiya, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va separatizm uchun hech qanday "transit" mamlakat yo'q va bo'lishi mumkin ham emas,

deb hisoblaymiz. Ishonchim komil, bunday tajovuzkor kuchlar bilan “o‘yin” qilish, ularga qarshi kurashdan o‘zini chetga olishga har qanday urinish katta xatodir.

“Sen menga tegma — men senga tegmayman” degan aqidaga asoslangan taktika tobora xavfli tus olib, avvalambor, shunday pozitsiyada turgan mammalatlarning o‘zi uchun o‘ta xatarli bo‘lib bormoqda.

Bizning shunga ishonchimiz komilki, Markaziy Osiyo nafaqat yadroviy, balki har qanday boshqa ommaviy qirg‘in qurollari, chunonchi, biologik va kimyoviy quollardan ham xoli hududga aylanishi lozim.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm bunday quollarga ega bo‘lishga intilayotgan bugungi kunda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mintaqamiz sharoitida har bir davlat ommaviy qirg‘in quollarini tarqatmaslik rejimiga so‘zsiz amal qilishi, ikki xil maqsadda ishlataluvchi materiallar saqlanadigan va foydalaniladigan obyektlarning xafsizlik tizimini takomillashtirishni ta’minlash to‘g‘risidagi majburiyatni o‘z zimmasiga olishi darkan.

Boz ustiga, shubhali va havoyi iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlaydigan ayrim rahbarlarning butun bir hududlarni jahonning yadro chiqindilari va zaharlovchi moddalar axlatxonasiga aylantirish uchun urinishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Agarda bunday urinishlar amalga oshgudek bo‘lsa, mintaqaning ekologik tizimi, hozirgi paytda

shu zaminda yashayotgan odamlar va kelajak avlodlar sog‘lig‘i uchun halokatli oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kunda mintaqamizni deyarli hamma tomondan yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar o‘rab turibdi. Markaziy Osiyo yadroviy tahdidlardan himoyalangan emas.

Aynan shuning uchun Markaziy Osiyonи yadro qurolidan xoli hudud sifatida huquqiy jihatdan rasmiylashtirish bo‘yicha 1998-yilda boshlangan ishlarni oxiriga yetkazish va bu boradagi tegishli kelishuvlarni kuchga kiritish mintaqamiz davlatlari tashqi siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

O‘zbekistonning 2005 va keyingi yillardagi tashqi siyosatining asosiy ustuvor vazifalari ana shular-dan iborat.

**V. Iqtisodiy sohadagi muhim ustuvor vazifalar-ga to‘xtalishdan oldin 2004-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yakunlarini qisqacha bayon qilishga ijozat bergaysizlar.**

Garchi o‘tgan yil biz uchun oson kechmagan bo‘lsa-da, 2004-yilda erishilgan yutuqlar barchamizni quvontiradi.

**Avvalambor**, iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta‘minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi.

Islohot yillari davomida yalpi ichki mahsulot ilk bor 7,7 foiz o‘sdi. Iqtisodiyotning deyarli barcha

tarmoq va sohalari jadal va izchil rivojlanmoqda — sanoat ishlab chiqarish hajmi 9,4 foizga, iste'mol mollari ishlab chiqarish 13,4 foizga, jumladan, sanoat tovarlari ishlab chiqarish 18,6 foizga o'sdi.

**Ikkinchidan**, qat'iy pul-kredit siyosatini o'tkazish natijasida islohot yillari davomida birinchi marta inflatsiya darajasi eng past — 3,7 foiz bo'lishiga erishdik. Bu aholining real daromadlari o'sishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi — 2004-yilda bu ko'rsatkich 15 foizga o'sdi.

**Uchinchidan**, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yili 10,1 foizga oshdi. Boshoqli don ekinlaridan taxminan 5 million tonnaga yaqin hosil olindi. Keyingi yillarda birinchi marta paxta xomashyosi yetishtirishda eng katta natijaga erishildi — 3,5 million tonnalik paxta xirmoni bunyod etildi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish tizimi tubdan o'zgarmoqda, fermerlik qishloqda xo'jalik yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli sifatida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Bugun respublikamizda 85,5 ming fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda va aynan ular hozirgi kunda muhim qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtiradigan asosiy ishlab chiqaruvchilarga aylanmoqda.

**To'rtinchidan**, mahsulot eksporti bo'yicha ham sezilarli natijalar qo'lga kiritildi — uning hajmi 30 foizga oshdi. Shu bilan birga, eksport tarkibi sifat jihatidan o'zgarib bormoqda. Tayyor mahsulotlarning eksportdagi ulushi 52 foizga o'sdi. Tashqi

savdo aylanmasida jami 1 milliard AQSH dollari-dan ortiq miqdordagi ijobiy saldoga erishildi.

**Beshinchidan**, 2004-yilda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tarmoq ko'lami hamda hajmi salmoqli darajada o'sdi. Kichik biznes korxonalarini soni o'tgan yilda 14 foizga ko'paydi.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 425 mingdan ziyod yangi ish o'rnlari tashkil etildi. Bu 2003-yilga nisbatan 14 foiz ko'p demakdir. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortdi va 2004-yilda 35,6 foizni tashkil etdi.

Bu natijalarga erishishda tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishlarini kafolatlash, ularni davlat ro'yxatiga olishning soddalashtirilgan mexanizmini joriy qilish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibini unifikatsiya qilish, kichik biznes subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar muhim omil bo'ldi.

**Oltinchidan**, mamlakat real iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. O'tgan yili bu ko'rsatkich 5,2 foizga o'sdi va yalpi ichki mahsulotning 20 foizini tashkil etdi. Bunda markazlashtirilgan manbalar ulushi keskin kamaydi va markazlashtirilmagan manbalar, avvalo, korxonalarining o'z mablag'lari ulushi oshib, jami investitsiyalarning 43 foizdan ortig'ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etish keskin — ya'ni, 1,5 barobar

ko‘paydi. Ayniqsa, neft, gaz, to‘qimachilik sanoatida ularning ulushi yanada salmoqli bo‘ldi.

Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. O‘z mablag‘larimiz va jalg qilingan sarmoyalar hisobidan yirik sanoat, kommunikatsiya, infratuzilma obyektlari va boshqa inshootlar bunyod etildi.

Transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tish joiz, deb bilaman. Bu yo‘nalishda ko‘pgina salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Amudaryo uzra uzunligi 681 metrlik zamonaviy avtomobil-temiryo‘l ko‘prigi barpo etildi. Yangi Toshguzar — Boysun — Qumqo‘rg‘on temiryo‘l magistrali qurilishi jadal sur’atlar bilan davom etmoqda. Bu yo‘lning 57 kilometrlik Toshguzar — Dehqonobod uchastkasida o‘tgan yili ishchi poyezdlar qatnovi boshlandi.

Toshkent — Samarqand va Toshkent — Angren yo‘nalishi bo‘yicha elektr poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda O‘zbekiston yo‘llari ko‘plab parametrlar bo‘yicha xalqaro andozalar va zamonaviy talablarga javob beradi.

**Yettinchidan**, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishga qaratilgan ma’muriy islohotlar bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda va o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Davlat boshqaruvi organlarining vazifalari tubdan qayta ko‘rib chiqildi, eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga xos, o‘z umrini yashab bo‘lgan ortiqcha

bo‘g‘in va vazifalar, birinchi galda, taqsimlash funksiyalari keskin tarzda qisqartirildi. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘rtasidagi vakolatlar aniq chegaralab qo‘yildi.

Ma’muriy islohot jarayonida 20 ga yaqin davlat boshqaruvi organi qayta tashkil etildi va 40 mingdan ortiq shtat birligi tugatildi yoki boshqaruv xodimlari soni 22 foizga qisqartirildi.

Moddiy resurslarni turli kvotalar, limitlar va raznaryadkalar asosida taqsimlashning eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan markazlashtirilgan tizimiga barham berildi. Tovar-xomashyo birjalar faoliyati tubdan o‘zgartirildi.

Mahsulotlarning katta qismi, jumladan, yuqori likvidli va xaridorgir tovarlar — paxta tolasi, lint, benzin, dizel yonilg‘isi, mineral o‘g‘itlar, o‘simmilik yog‘i, un kabi mahsulotlar bugungi kunda birja savdolari orqali sotilmoqda.

O‘tgan yilning dekabr oyida O‘zbekistonda bo‘lgan Xalqaro valuta fondi missiyasi 2004-yilda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo‘lidagi sa'y-harakatlarimizga yuqori baho berdi. Xususan, missiya o‘z memorandumida 2004-yil O‘zbekiston uchun tub iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonining muhim burilish davri bo‘lganini qayd etdi.

Ayniqsa, yuqori iqtisodiy natijalarga erishilgani, budget ko‘rsatkichlari muvaffaqiyatli bajarilgani, iqtisodiy islohotlar jarayoni jadallashtirilgani, jumladan, keng ko‘lamli xususiylashtirish ishlari

amalga oshirilgani, zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli qishloq xo'jaligi shirkatlari tugatilib, ularning negizida fermer xo'jaliklari tashkil etilgani, ma'muriy islohotlar o'tkazilganiga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro valuta fondi missiyasi O'zbekiston hukumatining makroiqtisodiy dasturi va 2005-yilda amalga oshirish mo'ljallangan tarkibiy islohotlarni to'liq qo'llab-quvvatlashini bayon etdi.

2004-yil yakunlariga ko'ra "Naslediye" fondi va "Uoll strit jornel" tomonidan tayyorlangan hamda mashhur "Washington tayms" gazetasida chop etilgan Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha O'zbekistonning jahondagi sezilarli taraqqiyotga erishgan o'nta davlat qatoriga kiritilgani bizga katta mammuniyat bag'ishlaydi.

Muhtaram do'stlar!

Endi, ijozatingiz bilan, 2005-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalari haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

**Asosiy ustuvor vazifa avvalgidek —bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishdan iborat.**

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimiz hamda mintaqqa va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni obyektiv shart qilib qo'ymoqda.

Bu borada ham juda ko‘p yechilmagan muammolar bor. Ya’ni, eski ma’muriy-taqsimot tizimi qoliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yanada cheklash, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta’minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to‘laqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo‘lidagi mavjud g‘ov-to‘sqliarni bartaraf etishimiz zarur.

Bu yo‘nalishda ko‘p ishlar qilindi, ammo yaqin vaqt ichida hal qilishimiz lozim bo‘lgan masalalar ham oz emas. Ana shunday masalalardan biriga sizlarning e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Bugun mamlakatimizda aholining ish haqi va daromadlarini bosqichma-bosqich oshirib borishni ta’minlash uchun zatur shart-sharoitlar yaratildi.

Ishlab chiqarishning jadal modernizatsiya qilinishi, zamonaviy quvvatlarning ishga tushirishi iste’mol bozorini sifatli va raqobatga bardoshli mahsulotlar bilan to‘ldirish imkonini bermoqda.

Bu vazifani hal etishda inflatsiya darajasini pasaytirishga erishganimiz, pul massasi nazorat qilinayotgani, milliy valutamiz — so‘mning konvertasiyasi va barqaror kursi asosiy omil bo‘lmoqda.

O‘z navbatida, aholi daromadlarining o’sishi uning xarid qobiliyatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Lekin, shuni unutmaslik kerakki, aholi daromadlarining o'sishi narx-navoning ko'tarilishiga, ya'ni inflatsiyaga olib kelmasligi lozim. Buning uchun esa pul mablag'larini, birinchi navbatda, naqd pulni bank aylanmasiga jalg etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi va mexanizmini amalga oshirish zarur. Shu bilan birga, aholiga, ayniqsa, qishloq joylarida ko'rsatilayotgan xizmatlar va servisning hajmi hamda turlarini keskin ko'paytirishga erishish lozim.

Bu borada uy-joy qurilishini rag'batlantirish, moliyaviy oqimni yo'naltirish mumkin bo'lgan, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan samarali uy-joy bozorini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari aholining o'z pul mablag'larini depozitlarda, ayniqsa, uzoq muddatli depozitlarda saqlashdan manfaatdorligini kuchaytirish uchun jiddiy ishlashlariga to'g'ri keladi.

**Ikkinchi ustuvor vazifa — xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash.**

Keyingi yillarda respublika hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xususiy biznes faoliyat ko'rsatayotgan makroiqtisodiyot va tadbirkorlik muhiti ancha yaxhilandi. Buni mamlakatimiz tadbirkorlari ham, xorijiy ekspertlar ham e'tirof etmoqda. Biroq, bu borada barcha muammolar hal qilindi, deb aytishga hali erta.

Bu sohadagi eng muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

**Birinchidan**, davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko'proq cheklash.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi, bizda ham tekshirishlar natijalari bo'yicha mo'liyaviy va ma'muriy jazolarni (misol uchun, xo'jalik subyekti faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan katta miqdorda jarima solish, korxona faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hisob raqamidan foydalanishni taqiqlash va hokazolarni) faqat sud tomonidan tayinlash tizimiga o'tish vaqtini yetdi.

**Ikkinchidan**, xo'jalik subyektlariga nisbatan qo'llanadigan jazo choralarini tizimini to'liq qayta ko'rib chiqishning ham fursati keldi. Qasddan sodir etilmagan va katta bo'lмаган qoidabuzarliklar uchun jazo choralarini kamaytirish va tadbirkorlar yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda to'liq qoplagan hollarda jazoni qo'llashdan voz kechish kerak.

Shu munosabat bilan Adliya, Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari tez muddatda manfaatdor tuzilmalar bilan birqalikda xususiy tadbirkorlik uchun ana shunday kafolatlar yaratishga qaratilgan takliflarni kiritishlari lozim.

**Uchinchidan**, xususiy tadbirkorlarga zarur resurslarni sotib olish va o'z mahsulotini sotish uchun bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish, birja va auksion savdolari orqali sotilayotgan tovarlar

turi va hajmini kengaytirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar ko'rish, markazlashtirilgan taqsimot tizimiga qaytishga bo'lgan har qanday urinishlarga bakhram berish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

**To'rtinchidan**, xususiy tadbirkorlikni rivojlan-tirish, shubhasiz, bu sohaga moliyaviy ko'mak, qo'shimcha soliq imtiyozlari va preferensiyalar berishni taqozo etadi.

Bu yordamni zamonaviy rivojlangan bank tizi-mi orqali, ishlab chiqarish korxonalariga foiz stav-kalari uncha yuqori bo'lмаган kreditlar ajratish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Mik-rokreditlash tizimini kengaytirish, bu ishni Xal-qaro moliya korporatsiyasi, Jahon banki, Osiyo banki kabi xalqaro moliya tashkilotlari yordamida amalga oshirish talab etiladi.

**Uchinchi muhim ustuvor vazifa — kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lagini kengaytirishdan iborat.**

Biz 2007-yilga kelib kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini kamida 45 foizga yetkazish vazifasini o'z oldimizga qo'ymoqdamiz.

Shu maqsadda Iqtisodiyot vazirligi, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, Moliya va Adliya vazirliklari Savdo-sanoat palatasini, boshqa manfa-atdor tuzilmalarni jalb qilgan holda, kichik biznes uchun qo'shimcha kafolat, imtiyoz va preferensi-yalar berish bo'yicha hukumat qarorlari loyihasini

tayyorlashi lozim. Bunda quyidagi masalalar ko‘zda tutilishi zarur:

1. Soliqqa tortish tizimida qo‘srimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta’minlash, soliqlarni hisoblash va to‘lashning oshkora, soddalashtirilgan usullarini ishlab chiqish.

2. Faoliyatning ayrim turlari bilan shug‘ullanish uchun ruxsat berish tartiblarini qisqartirish va sod-dalashtirish, kichik biznesni ariza berish asosida ro‘yxatga olish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.

3. Yirik korxonalarning buyurtmalari asosida mayda butlovchi qismlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan yangi kichik korxonalar tashkil etish, xonardonlarda mayda xususiy sexlar ochishni rag‘batlantirish.

4. Kichik korxonalarda ishlaydigan, ayniqsa, qishloq joylarida kasanachilik bilan shug‘ullanadigan fuqarolar uchun moddiy-texnik ta’minot bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan va ular tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotishga ko‘maklashadigan tuzilmalar yaratish.

Shu o‘rinda mamlakatimiz qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning ahamiyati nechog‘li katta ekanini yana bir bor ta’kidlash joiz, deb bilaman.

Keyingi yillar tajribasi fermer xo‘jaliklarining shirkatlarga nisbatan ancha yuqori rentabelli bo‘lishi va zarar ko‘rmay faoliyat yuritishini yaqqol tasdiqladi.

Biz zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli shirkatlarni fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida yaqinda qabul qilingan, 2005—2007-yillarda 1100 ta, jumladan, bu yil 406 ta shirkat xo'jaligini qayta tashkil etish vazifasi belgilangan yangi dastur ijrosini qat'iy nazoratga olishimiz darkor.

Bu masalada yer ajratish va fermerlarni tanlash ishlari oshkora, adolatli tarzda va qat'iy tanlov, tender asosida o'tkazilishi juda muhimdir. Bunda mahalliychilik, urug'-aymoqchilik va poraxo'rlik hollariga keskin barham berish lozim.

Fermerlarga xizmat ko'rsatish, ularni zarur moddiy resurslar va texnika bilan ta'minlash bo'yicha bozor infiltruzilmasini shakllantirish jarayonini tezlashtirish zarur.

Fermerlarga bo'lg'usi hosil hisobidan imtiyozli stavkalar asosida kreditlar berishga o'tishni ta'minlash kerak. Va eng muhimi — barcha tomonlarning qabul qilingan shartnoma majburiyatlarini bajarishi yuzasidan qat'iy intizom o'rnatilishi darkor.

**To'rtinchi ustuvor vazifa — bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish.**

Gap moliya va bank tuzilmalarining qat'iy pul-kredit siyosatini o'tkazish, inflatsiya darajasining barqarorligini, milliy valutamiz va uning almashuv kursi mustahkamligini saqlashdagi mas'uliyatini oshirish haqida bormoqda.

Gap banklarni kapitallashtirish, ularning nizom va aylanma fondlarini ko'paytirish va mablag'larini investitsiya maqsadlariga, birinchi navbatda, real

iqtisodiyotga yo‘naltirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko‘rish haqida bormoqda.

Bank aylanmasidan hali-beri chetda qolayotgan salmoqli moliya mablag‘lari va pul oqimlarini ushbu tizimga jalb qilish uchun aniq va qat’iy choralar ko‘rish lozim.

Yuksak rivojlangan mamlakatlardagi tijorat va xususiy banklarning mijozlarga xizmat ko‘rsatish borasidagi tajribalarini sinchiklab, yanada keng o‘rganish, xo‘jalik subyektlari va aholining banklarga nisbatan ishonchini oshirishga erishish kerak.

Bu vazifa ko‘plab nizom va me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqishni, avvalo, bank xizmatchilarining mas’uliyati va madaniyatini oshirishni taqozo etadi.

**Navbatdagi ustuvor vazifa — uy-joy-kommunal xo‘jaligini isloh qilishga nihoyatda jiddiy e’tibor qaratishdan iborat.**

Kommunal xizmatlar, ayniqsa, issiqlik energiyasi, issiq va sovuq suv iste’molini hisobga oladigan asbob-uskunalarning yetarli darajada emasligi hamon jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Bu esa ana shu resurslarning ko‘plab isrof bo‘lishiga, tariflarning asossiz o‘sishiga, aholi qarzdorligining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuni tan olish kerakki, bizda kommunal tarmoqlardan samarali foydalanish tizimi, bu tarmoqlarni kapital tarzda almashtirish va modernizatsiyalash, umuman olganda, aholiga kommunal-maishiy xizmat ko‘rsatishning ta’sirchan mexanizmi amalda yaratilmagan.

Ko‘p qavatli uy-joy fondini boshqarish ishi mutlaqo qoniqarsiz ahvolda. Tashkil etilgan uy-joy mulkdorlari shirkatlari turar joylardan foydalanish va saqlash ishidan umuman bexabar bo‘lgan, tasodifiy kishilarga topshirib qo‘yilgan.

Uy-joy kommunal xo‘jaligidan foydalanish va uni saqlash borasida ham bozor mexanizmi amalda shakllantirilmagan. Bularning barchasi haqli ravishda aholining jiddiy e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda, mavjud muammolar esa shoshma-shosharlik bilan, yuzaki hal qilinmoqda.

Bunday holat uchun, avvalo, hukumat, viloyat va shahar hokimliklari, Toshkent shahar hokimligi javobgardir. Mavjud ahvolni o‘nglash uchun ko‘p ishlarni boshidan boshlashga to‘g‘ri keladi.

Qisqa muddatda uy-joy communal xo‘jaligini isloq qilishga qaratilgan keng ko‘lamli Dastur tayyorlash, uning ijrosi bo‘yicha barcha qat’iy choralarни ko‘rish darkor.

**Prinsipial muhim ustuvor vazifalardan biri — soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir.** Aytish joizki, yuqorida zikr etilgan ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatimizni takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq.

Busiz hech qanday masalani hal etib bo‘lmaydi. 1997-yilda ishlab chiqilgan va qabul qilingan Soliq kodeksi iqtisodiy islohotlar sohasida bugungi kunning yangi va ustuvor vazifalari talablariga javob bermaydi.

Faqat so‘nggi ikki yil davomida Soliq kodeksi va soliq qonunchiligiga yuzdan ortiq o‘zgartish va

qo'shimchalar kiritilgani ham shundan dalolat beradi.

Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanimish o'ta muhim ahamiyatga ega. Soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'-batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Shunga erishmog'imiz kerakki, har bir soliq to'lovchi, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin.

Bugun hayotning o'zi soliqlar adresli bo'lishini taqozo etmoqda. Soliq to'lovchi nima uchun va qancha soliq to'lashi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmos'h'i darkor. Bu o'rinda asosiy yuk tabiiy, mineral-xomashyo, yer-suv va boshqa zaxiralar dan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'-batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishi lozim.

Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarur.

Bu idoralarning bosh vazifasi soliqlarning budjetga o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlashgina emas, balki, eng muhimi, soliqqa doir jinoyatlarning oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarga yordam berish va ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga ko'maklashish, ular bilan muntazam ish olib borishdan iboratdir.

Shu munosabat bilan Moliya va Iqtisodiyot vazirliklari, Davlat soliq qo‘mitasi, Adliya vazirligi Savdo-sanoat palatasini jalg qilgan holda, amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtay nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengilashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirishni nazarda tutadigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tayyorlashlari va tasdiqlash uchun kiritishlari zarur.

Biz bugun mamlakatimizni isloh qilish va yangilash maqsadida oldimizga qo‘yayotgan va o‘z tatbig‘ini kutayotgan eng muhim yo‘nalish va ustuvor vazifalar asosan mana shulardan iborat.

Qadrli do‘srlar!

Mamlakatimiz siyosiy hayotida ikki palatali parlamentning faoliyat yuritishi barchamizning oldimizga yangi talablar qo‘yadi, zimmamizga katta mas’uliyat yuklaydi.

Deputatlarning Qonunchilik palatasida doimiy va professional asosda ishlashi, biz uchun mutlaqo yangi, tajribamizda sinalmagan faoliyat shaklidir. Shu ma’noda, qonunchilik hokimiyatini bunday shaklda, bunday asosda tashkil qilish barchamizdan nechog‘li safarbarlikni talab etishini o‘zimizga tasavvur qilishimiz qiyin emas.

Ayni paytda bu yuqori palata — Senatda ham mutlaqo yangi bo‘lgan ishni har taraflama o‘zlashdirib olishimizni talab qiladi.

Eng muhimi, parlamentimizning quyi va yuqori palatalarining bir-birini tushunib, bahamjihat, sa-

marali ishlashini ta'minlash uchun ikki tomonidan ham o'zaro hurmat, sabr-toqat ko'rsatish kerakligini hammamiz yaxshi anglaymiz, deb o'ylayman.

Bu haqda gapirganda, bir tomondan, men bar-chamiz oldimizda turgan vazifa naqadar murakkab va mas'uliyatli ekanini chuqur his qilishimiz lozimligini, bizning ishimizni nafaqat saylovchilar, nafaqat xalqimiz, balki ko'p-ko'p mamlakatlarning jamoatchiligi ham diqqat bilan kuzatib borishini ta'kidlamoqchiman.

Ikkinchisi tomondan esa, muhtaram deputatlar va senatorlar, bugun sizlarning barchangizga murojaat qilib, mas'uliyatli faoliyatingizga bardam va tetik kayfiyat bilan, o'z kuchingiz va ertangi kunga ishonch bilan qaragan holda kirishishingini tilayman.

Shuni aslo unutmasligimiz kerak — biz hech qachon, hech kimdan kam bo'limganmiz va bo'lmaymiz ham.

Barchangizga sihat-salomatlik, deputatlik faoliyatingizda yangi kuch-g'ayrat va muvaffaqiyatlar, oilaviy hayotingizda baxt va farovonlik yor bo'lsin.

*O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Qonunchilik  
palatasi va Senatining qo'shma  
majlisidagi ma'ruza,  
2005-yil 28-yanvar*

## **YANGI HAYOTNI ESKICHA QARASH VA YONDASHUVLAR BILAN QURIB BO'L MAYDI**

*Avval xabar qilinganidek, shu yil 7-fevral kuni Prezident Islom Karimov Oqsaroy qarorgohida Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan yig'ilish o'tkazdi. Davlatimiz rahbari ushbu majlisda nutq so'zlab, O'zbekiston hukumatining 2005-yil va kelgusi davrdagi asosiy vazifalari, Vazirlar Mahkamasining komplekslari, vazirlilik va idoralar ishini yangicha asosda samarali tashkil etish bilan bog'liq dolzarb masalalar haqida atroflicha fikr yuritdi.*

*Quyida ana shu nutq matni e'lon qilinmoqda.*

**Hurmatli majlis qatnashchilar!**

Hammangizga ma'lumki, Konstitutsiyamizga asosan shu yilning 28-yanvar kuni Bosh vazir va hukumatimiz yangi saylangan parlament oldida o'z vakolatini zimmasidan soqit qildi. Shundan so'ng parlamentning quyi va yuqori palatalari Bosh vazir nomzodini tasdiqladi, hukumat a'zolarining tarkibi esa 4-fevraldag'i Prezident Farmoni bilan tasdiqlandi.

Bugun Prezidentning Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan birinchi uchrashuvini o'tkazishdan maqsad hukumatimizning joriy yil va kelgusi

davrdagi asosiy vazifalari haqida qisqacha fikr almashib olishdan iborat.

Avvalambor, muhim bir masalani aniqlab olishimiz kerak. Yangi hukumat, uning tarkibida ish boshlayotgan har qaysi vazir, Vazirlar Mahkamasining komplekslarini boshqaradigan Bosh vazir o'rinnbosarlari va ularning barchasiga rahbarlik qilib, boshini qovushtirib turadigan Bosh vazirning o'zi ana shu vazifa va yo'nalishlarmi, ularning ustuvor jihatlarini qanday tushunadi va ularni qanday bajarmoqchi, ishni nimadan boshlamoqchi?

Yodgingizda bo'lsa, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisida 2005-yil va kelgusi yillarda oldimizda turgan asosiy va ustuvor yo'nalishlar haqidagi Prezident ma'ruzasida bosh vazifa — jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish, hayotimizning barcha sohalarida liberallahshtirish, ya'ni, erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishdan iborat ekani aniq belgilab berildi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil yakunlariga bag'ishlab 18-fevral kuni o'tkazish mo'ljallanayotgan majlisining kun tartibiga, islohotlarni amalga oshirish va erkinlashtirish jarayonlariga nimalar, qanday muammolar g'ov-to'siq bo'lib turibdi, degan savol asosiy masala qilib qo'yilgani albatta bejiz emas. Buning zamirida katta ma'no bor.

E'tibor bergan bo'lsangiz, biz ilgari masalani joriy yilda oldimizda turgan vazifalarning asosiy

yo‘nalishlari quyidagilardan iborat va ularni tez kunda bajarish shart, degan mazmunda qo‘yar edik. Bugun esa, kun tartibidagi masala mutlaqo boshqacha tarzda, aniq va lo‘nda qilib qo‘yilmoqda.

Biz mustaqil taraqqiyot yo‘lida o‘n to‘rt yildan buyon keng ko‘lamli islohotlarni izchillik bilan olib bormoqdamiz. Bu borada biz tanlagan model, jamiyat hayotini erkinlashtirish jarayonlari amalda o‘zini oqlaganini ko‘p-ko‘p misollarda ko‘rishimiz qiyin emas. Bu — hayotimizning deyarli barcha jabhalarida o‘z tasdig‘i va isbotini topgan, ko‘pchilik tomonidan tan olingen haqiqatdir.

Shu ma’noda, biz oxirgi yillar, jumladan, 2004-yilda erishgan yutuqlarning asosiy omili nimada, deb so‘rasa, men, bu yutuqlarning zamini — jamiyatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarda, islohotlarning ma’nosи, samarasi esa erkinlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq, deb javob bergen bo‘lardim.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senating qo‘shma majlisidagi ma’ruzada ana shu ustuvor maqsad va vazifalarning barchasi aniqlanib, ularning bugungi va kelgusi hayotimizdagi o‘rnи va ahamiyati ko‘rsatib berildi. Lekin shu borada bir narsani taajjub bilan qayd etishga to‘g‘ri keladi.

Ushbu ma’ruzada bayon etilgan masalalar — bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholash, oldimizda turgan eng muhim va yetakchi vazifalarni belgilashda mana shu yerda o‘tirgan hukumat

a'zolarining hissasi va ulushi qanday bo'ldi, degan savolga, afsuski, ijobjiy javob berib bo'lmaydi.

Tabiiy savol tug'iladi: bu ma'ruzada qo'yilgan ustuvor vazifalarga yurtimiz jamoatchiligi, kerak bo'lsa, xalqaro miqyosdagi ekspert va kuzatuvchilar, hatto bizga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan mamlakatlarning mutaxassislari ham alohida e'tibor berib, agarki bu g'oyalar amalga oshirilsa, O'zbekiston o'zining ko'zlagan maqsadlariga albatta erishadi, degan fikrlarni matbuot va televideniyadagi chiqishlarida ochiq aytayotgan bir paytda bu masalalarga bevosita daxldor va mas'ul bo'lgan shaxslarning bunday passiv qarashlarini qanday tushunish mumkin?

Yurtimizning bugungi kuni va istiqbolini o'ylab yashaydigan odamlar bu ma'ruzada ilgari surilgan maqsadlarni to'g'ri anglab, qo'llab-quvvatlamoqda. Hayotimizni yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan bu yangi vazifalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlamoqda. Nega deganda, biz mamlakatimizni modernizatsiya qilish, barcha sohalarda islohotlarni chuqurlashtirish, erkinlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirmas ekanmiz, bir joydadepsinib, taqa-taq to'xtab qolishimiz, hattoki, kechagi kunga qaytishimiz ham hech gap emas.

Shu sababli men bu masalaning naqadar muhim va dolzarbligini yana bir bor ta'kidlab, sizlardan so'ramoqchiman: bu jarayonga bugun har qaysingiz o'z sohangizda qanday amaliy hissa qo'shyapsiz?

Masalani aynan shunday qo'yishni o'rinli, deb bilaman.

O'zingiz bir o'ylab ko'ring. Hozirgi kunda hayotimizda o'z yechimini kutayotgan qanchadan-qancha muammolar, avvalo, jamiyatimizni yangilash va isloh qilish, xalqimizning og'irini yengillatish yo'lida g'ov-to'siq bo'lib turgan salbiy holatlar haqida ko'p gapirish mumkin. Ayniqsa, aholini ish va daromad bilan ta'minlash, odamlarimizning boshalardan kam bo'lmaydigan hayot kechirishi uchun sharoit tug'dirib berish kabi qator dolzarb masalalarning joylarda hanuzgacha hal bo'lmay kelayotganini ta'kidlash lozim.

Jumladan, inson huquq va manfaatlarini himoyalash, aholining ta'minoti va ijtimoiy muammlarni yechish singari muhim masalalarga bepisandlik bilan qarash, qonunbuzarlik, tamagirlilik, o'z vazifasini suiiste'mol qilish holatlari hamon uchrab turganini, bunday salbiy ko'rinishlarni qonun asosida bartaraf etish haqida hali ko'p bosh qotirish kerakligini shu zalda o'tirganlarning barchasi yaxshi biladi, deb o'ylayman.

Umuman, hukumat va uning a'zolari zimmasiga yuklangan qaysi masalalarni olmaylik — bu iqtisodiyotimizga va xo'jalik subyektlariga har tomonlama erkinlik berish bo'ladimi, sanoat yoki qishloq xo'jaligi bo'ladimi, yer osti, yer usti boyliklariidan oqilona foydalanish bo'ladimi, xususiy-lashtirish, mahsulot ishlab chiqarishni monopoliyadan xoli qilish va sog'lom raqobatni tashkil etish

bo‘ladimi, qo‘shti davlatlar va xorijiy hamkorlari-miz bilan iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq masalalari bo‘ladimi, ta’lim-tarbiya va sog‘liqni saqlash yoki bandlik va ijtimoiy muhofaza masalalari bo‘ladimi — ularning barchasida mavjud muammolarni yechish uchun, ochiq tan olish kerak, ko‘pchilik rahbarlarda mas’uliyat, qat’iyat va azm-u shijoat yetishmasligini ko‘rish qiyin emas.

Bugungi kunda hukumat oldida turgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishi uchun, mening fikrim bo‘yicha, avvalambor, ikkita narsani talab qilish kerak.

**Birinchi talab** — har bir mutasaddi rahbarning o‘z ishiga bo‘lgan mas’uliyatini tubdan o‘zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish. Bizda ba’zi vazirlar borki, yil davomida biron narsani so‘ramasangiz, o‘zicha hech qanday taklif va tashabbus bilan chiqmaydi. Ularning xayolida bir gap: hech kim menga tegmasa bas, tinchgina kunim o‘tsa bo‘ldi. Bu eng noma’qul, kerak bo‘lsa, eng zararli yondashuvdir.

**Ikkinci masala** — hukumat a’zosi sifatida siz-larga katta ishonch, katta vazifa yuklatilgan. Lekin shu ishonch, shu vazifaga munosib bo‘lish uchun har qaysingiz tegishli bilim va tajriba, yuqori malakaga ega bo‘lishingiz shart. Rus tilida buni “kompetentnost” deydi. Ya’ni, o‘z sohasida kom-petentli bo‘lish — bu zamon talabi. O‘zbekcha aytganda, o‘z ishining ustasi bo‘lish, o‘z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish kerak.

Biz har bir rahbarning faoliyatiga mana shu ikkita talabga qay darajada javob berishiga qarab baho beramiz va xulosa chiqaramiz. Men bu ikki talabdan birinchisiga, ya'ni, mas'uliyat masalasiga ko'proq e'tibor beraman. Mayli, rahbarning bilimi yetishmasin, uni o'rgansa bo'ladi. Lekin u mas'uliyat va javobgarlikni unutsa, ishda hech qanday siljish va o'zgarish bo'lmaydi.

Bugun xalqimiz, jamoatchiligidan saylov paytida va undan keyin aytilgan shuncha yaxshi gaplar, shuncha va'da va da'vatlardan so'ng, mana, saylov o'tdi, qancha odam deputat, qanchasi senator bo'ldi, hukumat a'zolari tasdiqlandi, endi hayotimizda albatta yangi o'zgarishlar bo'ladi, degan ishonch bilan yashamoqda. Uzoq Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona yoki Qoraqalpog'iston dami — shu zaminda yashayotgan barcha yurtdoshlarimizning ko'nglida shunday ishonch bor.

Bizning zimmamizdagi eng muhim vazifa — el-yurtimizning ana shu ishonchiga munosib bo'lish, odamlarning hayotini amaliy ishlar bilan yaxshilashdan iborat.

Biz rahbarlar bir narsani qulog'imizga qo'rg'o-shinday quyib olishimiz kerak. Agarki, bizga katta umid va ishonch bilan qaraydigan odamlarning dasturxonida, oilaviy ahvolida, ro'zg'or tebratishida, umuman, kundalik hayotida ijobiyl o'zgarishlar ko'zga tashlanmasa, bu aholining haqli e'tirozi va noroziligiga olib kelishi tabiiy hol.

Shuning uchun ham biz qayerda, qaysi lavo-zimda ishlamaylik, rahbarlik ishimizning samarasi va mahsuli oxir-oqibatda ana shunday mezon bilan o'chanadi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Agar shu mezon asosida baho beradigan bo'lsak, shuni ham afsus bilan tan olishga to'g'ri keladi — bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti, ammo bizning ongimiz, dunyoqarashimiz juda sekinlik bilan o'zgaryapti. Meni tashvishga soladigan, kerak bo'lsa, qiyinaydigan og'ir muammo ana shu.

Yashirishning hojati yo'q, hozirgi kunda biz turli qiyinchiliklarni boshimizdan kechiryapmiz, hali yechilmagan muammolarimiz ham ko'p. Lekin, inkor etib bo'lmaydigan bir haqiqat borki, agar o'zimiz jon kuydirmasak, o'zimiz ishlamasak, hech kim chetdan kelib bizning o'rnimizga ishlaydi, bu muammolarni hal qilib bermaydi.

Bu masalalarning asosiy yechimi esa, hech shubhasiz, yurtimizda boshlangan islohotlar va erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazishdan iborat.

Sodda qilib aytadigan bo'lsak, erkinlashtirish degani — bu qo'l-oyog'imizni kishan kabi bog'lab turgan har qanday to'siqlardan butuniay xalos bo'lish degani. Aslida iqtisodiyotga nisbatan ishlatilgan bu so'z bugungi kunda sud-huquq masalasi bo'ladimi, davlat va jamiyat qurilishi yoki fuqarolik idoralarini shakllantirish bo'ladimi, ommaviy axborot vositalari yoki inson huquqlari

bo‘ladimi, jamiyatimizning barcha sohasiga daxldor bo‘lgan g‘oyat muhim masalaga aylanmoqda.

Erkinlashtirish jarayonlari avvalo iqtisodiyotda, birinchi galda, kichik biznes va tadbirkorlik sohasida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, odamlarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun, o‘z kuchiga, aql-zakovatiga ishonib yashashi uchun mustahkam poydevor bo‘lmoqda.

Lekin savol tug‘iladi: bugun bu jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun nimalar to‘sinq bo‘lmoqda?

Ochiq aytishim kerak — bunga avvalambor byurokratik apparat to‘sinqlik qilmoqda.

Mana, misol uchun, qishloq tumanlaridan birida faoliyat ko‘rsatayotgan hokimning faoliyatini olaylik. Aslida bu masala hammangizga tegishli. Shu hokim fermerlik harakatini rivojlantirish, bu soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash, ularni yer bilan, kredit resurslari bilan ta‘minlash, muxtasar aytganda, fermer xo‘jaliklarining mustaqil oyoqqa turib olishiga imkoniyat yaratib berish uchun qay darajada jon kuydiradi? Aytinglar, shunday sharoit tug‘dirib bermasdan turib, biron-bir davlatda bu soha rivojlanganmi o‘zi? Dunyoda bunday tajriba yo‘q.

Hozirgi paytda respublikamizda 159 ta qishloq tumani bor va ularning har biri uchun fermerlik harakatini rivojlantirish hayotning eng muhim talabi bo‘lib turibdi. Bu sohada oldimizdagи asosiy maqsad ham shundan iborat. Chunki eski kolxoz va sovxozlarning davri allaqachon o‘tib bo‘lganidek, bugungi shirkatlarning ham davri o‘tib bormoqda.

Modomiki, fermerlik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning samarali usuli ekan, bu harakatga keng yo‘l ochib berish, fermerlarni mulk egasiga aylantirish, mas’uliyatini oshirish, yerni ularga 50—100 yillik muddatga ijaraga berish, hisob-kitob ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali bu maqsadga erishish mumkin.

Shularning hammasini inobatga oladigan bo‘lsak, biz fermer xo‘jaliklarini, ta’bir joiz bo‘lsa, bami-soli yosh boladek asrab-avaylab tarbiyalashimiz lozim. Mayli, bularning orasida 10—15 foiz nomiga fermerlik qiladigani ham bo‘lsin. Ular yerni oladiyu, yeryong‘oq, qovun-tarvuz ekib, uni faqat o‘z manfaati uchun ishlatadi. Shartnomaga amal qilmaydigan bunday fermerlarga nisbatan esa qonun asosida ish olib borish darkor.

Aytaylik, yer bir yil hosil bermasligi mumkin. Shunday holatda uning egasini sekin chaqirib, sababini aniqlash lozim. Agarda ijaraga olingan yer ikki-uch yil uzluksiz o‘z xarajatini oqlamasa, fermer uni qaytarib topshirishi kerak. Bularning hammasi qonunda aks ettirilgan. Fermerlikni epolmaganlar borib boshqa ish topsin. Nega deganda, shuni ham aytish kerakki, dangasalar hech qachon fermer bo‘lmaydi.

Bugungi kunda hokimlar bu o‘ta muhim masalaga aynan mana shunday ko‘z bilan qarashi darkor. Lekin amalda nima bo‘lyapti? Ko‘pchilik joylarda fermerlik niqobi ostida yerni birinchi navbatda o‘z

qarindosh-urug'lariga berish harakatlari uchramoqda. Shunday soxta "fermer" larga suvgaga yaqin, hosildor, sifatli yerlar berilyapti. Ularga boshqa masalalarda ham alohida g'amxo'rlik ko'rsatilyapti. Albatta, shundan keyin adolat buziladi, shundan keyin fermerlar nafaqat hokimga, balki davlatga ham ishonmay qo'yadi.

Xo'sh, bunday hokimlarga davlat manfaatlarini himoya qiladigan shaxs deb baho berish mumkinmi? Albatta, qonunni mensimasdan, o'z manfaatini ustun qo'yadigan mansabдорlarga nisbatan tegishli choralarni qo'llash — o'z yo'li bilan, lekin jamiyatimizda ildiz otayotgan bunday illat, bunday kayfiyat bilan biz aslo murosa qilolmaymiz.

Muxtasar qilib aytganda, biz uchun ustuvor vazifa bo'lgan fermerlik harakatini har tomonlama rivojlantirish maqsadida muntazam ish olib borish, bu borada ta'sirchan va samarali mexanizmlarni qo'llash kerak. Masalan, o'tgan yili qarzdor bo'lib qolgan fermerlardan qarzlar undirib olindi. Chunki fermer shartnoma rejasini bajarmasdan, davlat manfaatiga bepisand qaraydigan bo'lsa, bu albatta yaxshilikka olib kelmaydi.

Afsuski, keyingi paytlarda qishloq xo'jaligi sohasida katta lavozimda o'tirgan ayrim sobiq amaldorlar hokimlarni yomon bir odatga o'rgatib qo'ygan. Ya'ni, "fishka" degan qonunsiz ko'rsatmalarni joriy qilib, mineral o'g'it, yonilg'i-moylash materiallari uchun oldindan hisob-kitob qilmasdan,

bu moddiy resurslarni xo‘jaliklarga berib yuboravergan. Hosil topshirish vaqtি kelganda esa, bu yil bahor seryog‘in keldi, yozda suv yetishmadi, g‘o‘zani do‘l yoki sel urib ketdi, degan bahonalar ro‘kach qilinavergan. Ana shunday rahbarlar va joylardagi hokimlar, kuzda bitta yomg‘ir yog‘sа, qaniydi, deb xudoga yolvorib yuradi, chunki nomiga bir tomchi yog‘sа, o‘z aybini yopish uchun ularga bahona topiladi.

Oqibatda mineral o‘g‘it, yonilg‘i-moylash materiallari, kimyoviy vositalar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqargan, yetkazib bergen zavodlarda ishchilarga oylik yo‘q, u yoqda debitorlik, bu yoqda kreditorlik qarzlari ko‘payib ketgan.

Eng yomoni, bunday rahbarlar yil oxirida, shuncha qarzni nima qilish kerak, mana shu hujjatga imzo cheking, davlat shundan voz kechsin, deb keladi, kelaveradi. Ming afsuski, bunday paytda yuqori hukumat mansabida o‘tirgan ayrim shaxslar bu masalada yetarli darajada mas‘uliyat ko‘rsatmaydi va buning natijasida davlatga juda katta zarar yetadi.

Shuning uchun ham men bugun mas‘uliyatni oshirish masalasini birinchi talab sifatida sizlarning oldingizga keskin qilib qo‘ymoqdaman.

Hozirgi kunda respublikada mingdan ziyod shirkat xo‘jaligi bo‘lsa, ularning aksariyati qarzga botgan. Bu muammoni yechish uchun nima qilish kerak? Avvalo qarzni uzish kerak. Qarzini uzmasa, ularga yana bir yilga oldindan mineral o‘g‘it, yonilg‘i, urug‘lik berish kerak bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti talablariga zid bo‘lgan bunday holatlar

uchun biz odatda ana shu moddiy resurslarni ishlab chiqaradigan va sotadiganlarni aybdor qilamiz. Lekin bu illatning shunchalik tomir otib ketishiga faqat shular javobgarmi? Yuqorida o'tirib, shu ishlarga ruxsat berayotganlar-chi?

Mana shunday noma'qul holatlarga butunlay barham berish uchun boshqaruv sohasida, avvalambor, samarali ishlaydigan izchil sistema, tizimni shakllantirish kerak. Va bu tizim shunday ishlashi kerakki, **bordi-yu biror-bir mansabdor shaxs davlat siyosatidan chekinib, qonunga xilof ishlar bilan shug'ullanadigan, o'z manfaatini davlat, xalq manfaatidan ustun qo'yadigan bo'lsa, u kimligi, kimning qarindoshi, qaysi rahbarning og'aynisi ekanidan qat'iy nazar, muqarrar ravisha jazosini olishi shart.** Ya'ni, bunday jazoning muqarrarligini shu odamdan yuqori lavozimda o'tirganlar emas, balki tizimning o'zi talab etishi zarur.

Jamiyatda ana shunday qarash, ana shunday tushuncha shakllangan taqdirdagina qonunga itoat qilib yashash hayotiy me'yorga aylanadi, qonun ustuvorligi so'zda emas, amalda ta'minlanadi.

Shu munosabat bilan men huquq-tartibot organlari va olimlarimizdan qanday qilib shunday tizimni vujudga keltirish mumkin, qanday qilsak, qonunga itoat qilmaydiganlar so'zsiz jazoga tortiladigan bo'ladi, nima hisobidan aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirishimiz kerak, deb so'ramoqchiman.

Shu masala yuzasidan mutasaddi davlat va hukumat idoralari tegishli takliflarni tayyorlashi lozim.

Ushbu takliflarda bu maqsadga erishish uchun qaysi qonunlarni o'zgartirish, qanday yangi qonunlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish kerakligi o'z ifodasini topishi zarur.

Agar G'arb davlatlarining bizdan ustunligi nimada, deb so'rasha, men, qonun ustuvorligi va jazoning muqarrarligida, deb aytgan bo'lardim.

Bizda esa kimdir qonunni buzsa, aytaylik, soliqni o'z vaqtida to'lamasa, kechiramiz. Boz ustiga, soliqchi tekshirib kelsa, aybdor uning cho'ntagiga bir narsa solsa, bo'ldi — olam guliston.

Mana shunday illatga chek qo'yish uchun soliq idoralaridagi rahbarlarni tumandan tumanga teztez almashtirib turish tajribasini keng qo'llash zarur, deb o'layman.

Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bu — davlat xodimlarini lavozimga tanlash va tayinlash bilan bog'liq.

Bu haqda gapirganda, ko'p uchraydigan noxush bir holatni taassuf bilan aytishga majburman. Masalan, bir nomzodga ishonch bildirib, uni vazirlik lavozimiga qo'yamiz. Yarim yil-bir yil o'tgach, qani, ishlaringizni bir ko'raylik, deb, uboshqarayotgan sohaning ahvoli bilan qiziqsangiz, har qaysi bo'lim yoki tarmoqqa, boshqaruv ishiga o'zining tanish-bilishlari, qarindoshlarini, bir paytlar G'allaooldami yoki boshqa joydami, birga ishlagan og'aynisini qo'yan bo'lib chiqadi. Ya'ni, mahalliychilik va oshna-og'aynigarchilik kasaliga duchor bo'ladi.

Qachonki, biz kadrlar masalasining ishimizga eng katta ziyon yetkazadigan mana shunday salbiy tomonlarini bartaraf eta olsak, ko‘p muammolar ni yechishga imkon tug‘iladi. Bizning asosiy vazifamiz qayerda shunday kasallik paydo bo‘ldi, qayerda ildiz otdi — shuni aniqlab, o‘z vaqtida chorasi ni ko‘rishdan iborat. Bordi-yu kasallik kuchayib ketsa, uni jarrohlik yo‘li bilan kesib tashlash, lo‘nda qilib aytganda, nopol va noqobil kadrlardan voz kechishdan boshqa iloj qolmaydi. Chunki bitta bernaza rahbar nafaqat ishni barbod qilishi, balki minglab insonlarning hayotini buzishi mumkin.

Shuni ta’kidlash zarurki, davlat xizmatchilar orasida korrupsiyaga, xizmat vazifasini suiiste’mol qilish holatlariga qarshi doimiy kurash olib borilyapti. Qonunni buzgan, jinoyatga qo‘l urgan nopol xodimlarni huquq-tartibot idoralari vaqtida ushlab, jazosini beryapti. Lekin bu masalada olib borilayotgan ishlar mutlaqo yetarli emasligini ta’kidlash joiz.

Hammangizga ma’lumki, bizda davlat — bosh islohotchi degan tamoyil bor. Bugun shu iborani yangicha tarzda, yangicha mazmunda qo‘llab aytagidan bo‘lsak, asosiy islohotchi davlat xodimi bo‘lishi kerak. **Hozirgi kunda islohotlar taqdirini eng avvalo davlat va hukumat idoralarida mas’ul lavozimda o‘tirgan odamlar hal qilishini, binobarin, ular shu masalaga bevosita javobgar ekanini barchamiz chuqr anglab olishimiz shart.**

Muhtaram do‘stlar!

Bugun sizlar O'zbekiston hukumatining yangi a'zolari etib tasdiqlandingiz. Men sizlarni bildirilgan bunday ishonch bilan tabriklash bilan birga, ogohlantirib ham qo'ymoqchiman. Buni hammangiz to'g'ri tushunasiz, deb umid qilaman. Ogohlantirish shundan iboratki, bu ishonchni oqlay olmasdan, qandaydir loqayd, beparvo bo'lib yurish, sezgirlikni, tashabbuskorlikni yo'qotish sizlarga yarashmasligini, eng muhimi, mendan ketguncha — egasiga yetguncha, degan kasallikdan butunlay judo bo'lish vaqt kelganini esingizzdan chiqarmang.

Men yuqorida hukumat a'zolarining ko'pchiligi haqida o'z fikrimni, kerak bo'lsa, tanqidiy gaplarni ham ochiq bildirdim. Shundan xulosa — go'yoki hayotda hech narsa o'zgarmagandek, yana eskicha ishlayveraman, deganlar qattiq xato qiladi.

Nega deganda, bugun biz barpo etayotgan yangi hayotni — farovon va erkin jamiyatni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. Saflarimizni ana shunday odamlardan o'z vaqtida tozalash, davlat apparatining butun kuchi, imkoniyat va salohiyatini shu yo'lida safarbar etish — bu Prezident sifatida mening asosiy burchimdir.

Bugun barchangiz yangi vazifaga kirishar ekan-siz, boshidanoq mas'uliyatni sezib, masalani qattiq va prinsipial qo'yishingiz zarur. Avvalo, masalani yechib berish, keyin shu bo'yicha ijrosini talab qilish lozim.

Aytish mumkinki, har qaysi vazirlik bu — o'ziga xos bir shtab. Shtab degani esa vaziyatni chuqur va

atroflicha tahlil etadigan, mavjud xavf-xatarlarni aniqlab, joriy va istiqbol rejalarini tuzadigan, shu maqsadda konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan markazdir.

Men har qaysi vazirlikning o'z ishiga mana shunday qarashini talab qilaman. Qo'lingizda ishlayotganlardan qaysi biri talabga javob bermaydigan bo'lsa, tegishli muddatda shu to'g'rida o'z takliflaringizni bildiring.

Men avvalo tashkiliy ishlar, kadrlar masalasini nazarda tutyapman. Qaysi vazirlikda xodimlarni ko'paytirish, qo'shimcha shtat berish kerak? Buni ham asoslab, takliflaringizni bering. Qaysi vazirlikda kimni almashtirish kerak bo'lsa, buni ham so'rang. Mayli, bu masalalarni yechishni men o'zimga olaman. Chunki, ko'pchililingiz kimnidir joyidan qo'zg'atishdan qo'rjasiz. Ishga tayinlasangiz, o'z nomingizdan tayinlaysiz, lekin ishdan olsangiz, nima qilasiz — yuqoridan, ya'ni Prezidentdan shunday buyruq bo'ldi, deysiz. Ey, aka, endi xafa bo'lmaisiz, menga buyursa, ishingizni davom ettirsangiz bo'lardi, lekin na iloj, tepadan tushgan buyruqni bajarish kerak, deysiz.

Aslida, qanday rahbar qo'l ostidagi kishilardan qo'rjadi? Kimningki, bir muttahamchiligi bo'lsa, tili qisiq joyi bo'lsa, o'sha odam qo'rjadi va bunday joyda sog'lom muhit bo'lmaydi.

Yana bir muhim masalaga to'xtalib o'tmoq-chiman.

Hammangizga ma'lumki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi

ma’ruzada Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgartishlar bo‘yicha, Prezident zimmasidagi ayrim vazifalar nafaqat Senatga, balki hukumatga ham berilgani bayon etildi.

Mana shu masalalarga aniqlik kiritish uchun men 5 fevral kuni bir farmoyishga imzo chekdir. Ana shu hujjatda Vazirlar Mahkamasiga yuklangan qanday vazifalar Prezident bilan albatta kelishuv asosida hal qilinishi, qaysi masalalarni hukumat o‘zi yechishi, umuman bu borada ishni tashkil etish prinsiplari aniq-ravshan ko‘rsatilgan.

Misol uchun, Tashqi ishlar yoki Mudofaa vazirligining vazifasi bo‘ladimi, xavfsizlikni ta’minalash yoki huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyati bo‘ladimi, chegaralarning daxlsizligini saqlash masalasi bo‘ladimi — bularning barchasi ana shu hujjatda aniq ifoda etilgan.

O‘ylaymanki, ana shu og‘ir va mas’uliyatli vazifalarni Prezident o‘z zimmasiga olishi zarur. Albatta, Vazirlar Mahkamasining ham bu masalalarga aloqasi bor, lekin mas’uliyat yuz foiz Prezident zimmasida bo‘lishi kerak.

Masalan, iqtisodiyotni oladigan bo‘lsak, katta-katta rejalarни ishlab chiqish, mamlakat rivojining kelgusi yo‘nalishlarini, bir yillik, uch yillik prognozlarni belgilash, balanslar masalasi, jumladan, oltin-valuta balansi, uning zaxiralari qanday bo‘lishi singari jiddiy masalalar ham Prezident bilan kelishilgan holda hal qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi, uning tarkibiy tuzilmasi, departamentlarining ishini zamonaviy asosda, samarali tashkil etish, hukumat barcha bo‘g‘inlarining faoliyati bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketishini ta‘minlash g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

E’tibor bergen bo‘lsangiz, nima uchun hamma masalalar, vazifalar soha-soha qilib, ya’ni komplekslar bo‘yicha bo‘lib berildi? Bundan maqsad shuki, ishda avvalo qat’iy, aniq tartib-intizom va albatta natija bo‘lishi kerak.

Binobarin, Bosh vazir o‘rinnbosarlari o‘z kompleksi bo‘yicha ishni boshqarib, javobgarlikni oxirigacha o‘z zimmasiga olishi lozim. Har qaysi hukumat a’zosi, har qaysi vazir o‘z sohasiga mas’ul bo‘lib, Prezident oldida javob beradi. Kerak bo‘lsa, Parlamentga borib, deputatlar oldida ham hisob beradi.

Biz yurtimizda davlat va jamiyat qurilishi borasida hech kimdan nusxa olmasdan, o‘z mustaqil yo‘limizni tanlab, shu yo‘ldan izchillik bilan bormoqdamiz. **Davlat qurilishi, davlat boshqaruvi, sodda qilib aytganda, davlatni idora qilishda biz, kim nima demasin, o‘zimizga mos, o‘zimizga xos yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz.** Biz bugun — oradan o‘n to‘rt yil o‘tib, kim bizga do‘sit, xayrixoh, kim dushman ekanini juda yaxshi bilib oldik.

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida bugun joriy etilayotgan yangi o‘zgarishlardan ko‘zlangan

asosiy maqsad nima? Maqsad — hokimiyat barcha tarmoqlari, jumladan, ijro hokimiyati bo‘lmish hukumat faoliyatining mas’uliyati va samarasini oshirish.

Shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, Prezident ijro hokimiyatining faoliyati bilan bog‘liq asosiy masalalardan hech qachon chetda turmaydi. Nega deganda, menda mas’uliyatni boshqalarga yuklash istagi ham, imkoniyati ham yo‘q. Aytaylik, qaysidir vazir biror-bir muammoni boshqalarga yuklashni o‘ylashi mumkin. Ammo Prezident kimga yuklaydi? Oxir-oqibatda har qanday masala bo‘yicha Bosh vazir va uning o‘rinnbosarlariga ham, har qaysi vazirga ham Prezident javobgar.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi usuli Prezidentlik boshqaruvi shakliga asoslanadi va bu qoida Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan. Shuning uchun bu masalada hech qanday tushunmovchilik bo‘lmasi ligi kerak.

Yuqorida zikr etilgan ma’ruzada men «boshqariladigan iqtisod» yoki «boshqariladigan demokratiya» deb atalmish modellar bizga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi», deb bejiz aytganim yo‘q.

Takror aytaman, odamlarimizning siyosiy ongi va saviyasi qanchalik yuksalsa, biz demokratiya yo‘lida qancha ko‘p ijobiy o‘zgarishlarga erishsak, erkinlashtirish jarayonlari ham shuncha tezlashadi va shu asosda Prezident 90-yillardagi murakkab bir sharoitda o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘lgan vakolatlarni tegishli tuzilmalarga berishi uchun imkoniyat tug‘iladi.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, men Rossiyaning "Независимая газета"si muxbiriga bergen intervyyuda ham shu haqda fikr yuritilgan. Ya'ni, 90-yillarda men ko'p vazifalarni, demakki, mas'uliyat va javobgarlikni ham o'zimga olishga majbur edim. O'sha paytda bu ishlarni ishonib topshirish uchun atrofimda boshqa hech kim yo'q edi. Topshirsam ham bajarmasdi. Bajarish u yoqda tursin, bir ko'zi bilan chapga, bir ko'zi bilan o'ngga qaraydigan odamlar ham juda ko'p edi. Ularning aksariyati ishslash o'rniga, aytaylik, kimning tarafini olish, kimning orqasidan ergashish haqida o'ylar edi. Shukrki, endi u kunlar ortda qoldi.

Bugun biz hukumat o'z vazifasini to'laqonli ado etishi, ta'bir joiz bo'lsa, o'z aravasini o'zi tortishi uchun R. Azimovni Bosh vazirning birinchi o'rribbosari lavozimiga tasdiqladik. Aytmoqchimanki, Bosh vazir Sh. Mirziyoyevning yukini yengil-lashtirish uchun unga birinchi o'rribbosar tayinlandi.

Birinchi o'rribbosarning zimmasiga, avvalambor, eng murakkab sohalar, ya'ni iqtisodiyot, bank va moliya masalalari uchun javob berish mas'uliyati yuklandi. Endi xususiy lashtirish yoki moliya-bank sohasi bo'ladimi, pul muomalasini tartibga solish yoki milliy valutamiz — so'mni mustahkamlash, uning kursini barqaror saqlash bo'ladimi, ana shunday muhim va ustuvor yo'naliishlar bo'yicha olib borilayotgan ishlarni to'liq R. Azimovdan so'raymiz.

Ayni paytda, unga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va savdo sohalarini boshqarish vazifasi

ham topshirildi. Bu esa bugungi kunda ushbu masalalarning alohida e'tiborga loyiq ekanini ko'rsatadi.

Men shu borada Moliya vazirligining mas'uliyati haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Moliya vaziri S.Rahimovga assosiy e'tiroz shuki, agar siz masalaga juda yengil qarab, hamma narsaga imzo chekaveradigan bo'lsangiz, bilib qo'ying, yanglishasiz.

Moliya — bu o'zbek tilida "xazina" degani. Xazinaning o'zi nima? Davlatning xazinasi, uning daromad va buromadini, bugungi va ertangi kunini belgilaydigan boylik qayerda saqlanadi, kim uni himoyalaydi? Albatta, Moliya vazirligi. Shu ma'-noda, agar menga qolsa, Moliya vazirligini Xazina vazirligi deb atagan bo'lardim.

Shuning uchun barchani ogohlantirib qo'ymoqchiman: bordi-yu biron-bir hujjatda Moliya vazirlining imzosi bo'lmasa, bu hujjat ustida ishni davom ettirishning hech qanday ma'nosi yo'q.

Bu masalada aslo zug'um o'tkazish va zo'ravonlik bo'lmasligi zarur. Oldindan aytmoqchiman, shu zalda o'tirgan Bosh vazir o'rinosarlari va vazirlarning har biri o'z sohasi manfaatini o'ylaydi. Lekin davlatning xazinasi bitta. Men xazina degan so'zni bekorga ishlatmadim. Milliy xazina bitta — faqat davlatniki.

Agar qo'yib bersangiz, bir rahbar yengil sanoatni rivojlantirish uchun pul kerak, deb keladi. Ikkinchisi esa, o'zi boshqaradigan neft va gaz sohasiga mablag' so'raydi. O'zimiznikilar yetma-

gandek, chet eldan ham turli korchalonlar keladi, gapni faqat shundan boshlaydi.

Bir qarashda, niyat yaxshiga o'xshaydi. Masa-lan, xorijiy moliya tashkilotlari sizga 8 yoki 10 foizli emas, 5 foizli kredit beramiz, deydi. Lekin, hisoblab ko'rsangiz, foizining o'zi otning kallasidek pul bo'ladi. Bugun bizga ko'proq taklif qilinadigani — 10 foizli kreditlardir. Bu — olgan kreditni 10 yilda ikki barobar qilib qaytarasiz, degani. Ba'zi vazirlar va ularning qo'lida ishlaydiganlar esa kredit degani osmondan tushadi, deb hisoblaydi shekilli, masalaning shu tomonlarini o'ylab ko'rmaydi. Mana, u davlatdan, bu bankdan keldi, kredit bermoqchi, deb xursand bo'ladi.

Ammo ular kreditni qaytarish nima hisobidan bo'ladi, bizning shunday imkoniyatimiz bormi yoki shu tariqa qarz botqog'iga botib qolmaymizmi, deb o'ylamaydi. Ota-bobomizdan qolgan bir naql borki, shuni eslash o'rinni, deb bilaman. Ya'ni, qarz olishdan oldin uzishni o'ylash kerak, degan hikmatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Bizning bugungi harakatimiz shundayki, biz mavjud imkoniyatlardan, ya'ni, valutamiz ba-quvvat, inflatsiya darajasi past bo'lganidan foydalanib, ko'proq odamlarning ish haqini, pensiya va nafaqa pullarini oshirish haqida o'ylaylik. Hozir biz uchun avvalo shu narsa muhim.

Bugungi kunda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kollejlarga budjet mablag'larining qariyb 50 foizi sarflanyapti. Tabiiyki, har qanday

davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tarishi qiyin, ammo biz, qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resurslarni izlab topyapmiz.

Lekin, ming afsuski, bu sohada ba'zi bir xunuk ishlar ko'zga tashlanmoqda. Mana, shuncha zamonaviy kollejlar qurildi, lekin ularda kimlar ishlayapti? Kollej direktorlarini tasdiqlash rasman Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiritilgan. Lekin amalda bu ish qanday yo'lga qo'yilgan?

Yangi-yangi kollejlar ishga tushirildi, ularda o'qish boshlandi, degan gaplarni eshityapmiz, televizorda ko'ryapmiz. Xo'sh, ularning rahbarlarini qachon tasdiqlash kerak — ishga kirishidan oldinmi? Yangi direktor ish boshlashdan avval xo'jalikni qabul qilib olishi lozimmi? O'qituvchilarni tayyorlash kerakmi? Kollejlarning moddiy-texnik bazasi, o'quv jihozlari, moddiy boyliklar uchun kimdir javob berishi zarurmi? R. Qosimovning shu soha bo'yicha rahbar bo'lib tayinlanganiga to'rt oy bo'lyapti, ammo tartib o'rnatish borasida hali-beri harakati sezilmayapti.

Biz katta-katta minbarlardan turib ta'lim islohoti haqida ko'p gapiramiz, joylarda esa, afsuski, ahvol boshqacha. Misol uchun, bir tumanda kollej qurilishiga ajratilgan mablag'ning 30 foizi qo'shib yozish yo'li bilan o'zlashtirib yuborilgan. Qurilgan kollejning esa usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Maktablarning ahvoli ham bundan qolishmaydi. Shu tariqa bir to'da qallob bu boradagi davlat siyosatini chippakka chiqaryapti. Tuman, viloyat hokimlarining

esa bu bilan ishi yo‘q. Nima uchun biror kishi bunday kimsalarning jilovini tortib qo‘ymaydi?

Kecha Bosh vazirga uchta viloyatdagi kollejlarning ahvolini o‘rganish to‘g‘risida topshiriq berdim. Prokuratura ham shu masalani tekshirishi kerak. O‘rganinglar, litsey-kollejlarda kim direktor, kim o‘qituvchi, u yerlarda qanday ishlar bo‘lyapti? Bar-chamizning ertangi umidimiz bo‘lmish farzandlarimizning ta’lim va tarbiya olishi qanday tashkil etilgan?

Bu masalada mening fikrim shuki, Toshkent Texnika universiteti qoshida kollejlар uchun o‘qituvchilar tayyorlaydigan qo‘sishimcha fakultet tashkil etish kerak. Bu fakultetni sentabr oyini kutib o‘tirmasdan, iyul oyidayoq ochish lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hal qiluvchi bo‘g‘ini bo‘lmish litsey va kollejlardagi mavjud ahvolni yaxshilash yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, uning ijrosini ta’minlashga alohida e’tibor berish zarur.

Hurmatli do‘stlar!

Bugungi uchrashuvda men taraqqiyotimizning yangi bosqichida davlat va jamiyat qurilishi, jumladan, hukumat faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq asosiy vazifalar haqida to‘xtalib o‘tdim.

Eng muhim masala — ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida o‘zimiz tanlagan modelga asoslangan holda, xalq hayotini yaqindan bilib, odamlarning tashvish va muammolarini har to-

monlama yuragimizdan o'tkazib, oldimizda turgan mavjud g'ov-to'siqlarni bartaraf etish, zamonning o'zi oldimizga qo'yayotgan dolzarb vazifalarni vijdonan va mas'uliyat bilan bajarishdan iborat.

Shu yo'lida barchangizga muvaffaqiyat va omad tilayman.

## **DEMOKRATIK JAMIYAT SARI YANGI QADAM**

*(O‘zbekistonda ikki palatali parlamentga bo‘lib  
o‘tgan saylovlар hamda Prezident  
Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasiga  
xalqaro hamjamiyat vakillarining munosabatlari)*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlarga 2004-yilning 26-dekabrida bo‘lib o‘tgan saylovlар mamlakatimiz tarixidan alohida sahifa sifatida joy oldi. Bu saylovlар o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra xalqimizning demokratik davlat barpo etish yo‘lidagi faolligi, siyosiy ongi va saviyasi ortib borayotganini yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Oshkoraliq, ochiqlik va qizg‘in kurashlar bilan o‘tgan bu saylovlар dunyoning 40 dan ortiq davlati va ko‘plab nufuzli xalqaro tashkilotlardan tashrif buyurgan 227 nafar ekspert va kuzatuvchilar tomonidan yuqori baholandi. Jahon jamoatchiligi va ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarining xalqaro andozalarga mos holda, demokratik tamoyillar asosida o‘tganini keng e’tirof etdi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Biz-

ning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlash-tirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” nomli dasturiy ma’ruzasi ham xalqaro hamjamiyat va chet el ommaviy axborot vositalari vakillarida katta qiziqish uyg’otdi. Dunyo-ning taniqli davlat hamda jamoat arboblari, siyosatshunos olimlar, xalqaro ekspert va kuza-tuvchilar, jurnalistlar ushbu ma’ruzada ko’tarilgan, har tomonlama asoslab berilgan ulkan ahamiyatga molik dolzarb masalalarga o’z munosabatini bildirib, uni keng sharhlagani ham shundan dalolat beradi.

Quyida O’zbekistonda bo’lib o’tgan parlament saylovleri va Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis palatalari qo’shma majlisidagi ma’ruzasi yuzasidan chet el ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan fikr-mulohazalarning ayrimlari e’tibo-ringizga havola qilinmoqda.

\* \* \*

“Prezident Islom Karimovning ma’ruzasini katta qiziqish bilan o’qib chiqdim. O’zbekiston rahbari tomonidan bayon etilgan, islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan asosiy yo’nalishlarni qo’llab-quvvatlayman”.

*J. BARROZA,  
Yevropa komissiyasi prezidenti*

\* \* \*

“Men O‘zbekiston rahbarining Yevropa Ittifoqi bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan qat’iyati hamda demokratiya, inson huquqlarini himoya qilish, samarali boshqaruv singari umumiy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan bildirgan fikrlarini olqishlayman”.

B. FERRERO-VALDNER,  
*Yevropa Ittifoqi tashqi aloqalar  
va yaxshi qo‘sningchilik siyosati komissari*

\* \* \*

“Avvalo, sizlarni O‘zbekistonda parlament saylovlarining muvaffaqiyatli o‘tgani bilan qutlayman. Yevropa parlamenti Tashqi ishlar qo‘mitasi mamlakatingizdagи demokratik o‘zgarishlar jarayonini diqqat bilan kuzatib bormoqda.

Shuni e’tirof etish kerakki, O‘zbekiston fuqarolik jamiyatini shakllantirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lida dadil qadamlar tashlamoqda”.

E. BROK,  
*Yevropa parlamenti Tashqi  
ishlar qo‘mitasi raisi*

\* \* \*

“Biz O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlari hamda yangi parlamentning dastlabki majlisi ish jarayonlarini katta qiziqish bilan kuzatdik va bularning hammasi o‘zbek jamiyatini yanada demokratlashtirish yo‘lidagi muhim qadamlar, deb hisoblaymiz”.

*I. TIMMETMAN-BUK,  
Niderlandiya parlamenti  
Senati Prezidenti*

\* \* \*

“Prezident Islom Karimovning parlament palatalarining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi qator sohalardagi eng dolzarb masalalarni qamrab olgani bilan ahamiyatli. Ayniqsa, O‘zbekiston rahbarining mintaqaviy integratsiya, umumiyoq bozor tashkil etish haqidagi takliflari menda katta qiziqish uyg‘otdi. O‘ylaymanki, ma’ruza da bayon qilingan fikrlar ushbu masalalarning ijobjiy yechimiga turtki beradi”.

*M. DANE,  
Jahon Bojxona tashkilotining  
Bosh kotibi*

\* \* \*

“O‘zbekiston rahbariyatining mamlakatni yanada demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti asosida rivojlantirish hamda institutsional islohotlarni joriy

etish yo'lidagi qat'iyati va sobitqadamligini yuqori baholayman.

Bu borada O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning demokratiya va erkin jamiyat barpo etish jarayonini to'xtatib bo'lmasligi haqidagi so'zlarini alohida ta'kidlamoqchiman. Aholining ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, siyosiy masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda siyosiy partiylar hamda fuqarolik institutlarining nufuzi va ta'sirini oshirish, nodavlat tashkilotlarining jamiyatdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish mamlakatda demokratlashuv jarayonining chuqlashishiga ko'maklashishini aytib o'tmoqchiman. Shu bilan birga, O'zbekiston rahbariyatining xususiy sektorni rivojlantirish hamda Markaziy Osiyoda yagona bozorni tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi, bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash tarafdoi ekani ham alohida e'tiborga molik.

Ishonamanki, ushbu dasturning amalga oshirilishi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotni demokratlashtirish yo'lida O'zbekiston taraqqiyotiga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi".

*Karel De GYUXT,  
Belgiya tashqi ishlar vaziri*

\* \* \*

“Prezidentning keng qamrovli bu ma’ruzasi, menimcha, mamlakat rahbariyatining jamiyatni yanada demokratlashtirish tamoyillariga sodiqligi-dan dalolat berib turibdi”.

E. YEGLE,

*Yevropa parlamentining O’zbekiston bilan aloqalar bo'yicha hay'ati a'zosi*

\* \* \*

«Men Prezident Islom Karimovning ushbu ma’ruzasini katta e’tibor bilan o’rganib chiqdim. U ko’p jihatdan qiziqarli, xulosa va saboqlarga boy, deb hisoblayman. Ma’ruzada O’zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga oid keng ko’lamdagi masalalar qamrab olingan bo’lib, u uzoqni ko’zlaydigan islohotlar dasturi, qonun va inson huquqlari ustuvorligiga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo’lidagi yana bir muhim qadamdir.

Men ayniqsa O’zbekistonda “boshqariladigan demokratiya” dan voz kechilganini, shuningdek, har qanday ekstremistik ruhdagi fundamental diniy va siyosiy doktrinalar qattiq qoralanganini to’la qo’llab-quvvatlayman. Prezident vakolatlarining bir qismi parlamentga, Bosh vazir va hukumatga o’tkazilishi O’zbekiston o’z taraqqiyot yo’lining yangi bosqichiga ko’tarilganini anglatadi. O’zbekiston rahbarining sud hokimiyati erkinligi va mustaqilligini

mustahkamlash borasidagi qat'iy pozitsiyasi ayniqsa diqqatga sazovordir.

Ma'ruzaning e'tiborga molik jihatlaridan yana biri — mamlakat rahbariyatining o'lim jazosini bekor qilish borasida bosqichma-bosqich amalga oshirib kelayotgan sa'y-harakatlari Yevropa Ittifoqi va Yevropa parlamentida o'z e'tirofini topadi, albatta.

So'nggi yillarda O'zbekiston qo'lga kiritayotgan katta iqtisodiy natijalar, yalpi ichki mahsulot hajmining o'sib borishiga erishilayotgani mavjud infratuzilmalarni taraqqiy ettirishda yanada kengroq imkoniyatlar ochadi. Ishonchim komilki, Prezident Islom Karimov bundan keyin ham islohotlarning iqtisodiy jihatiga jiddiy e'tibor qaratadi. Shu ma'noda, O'zbekiston rahbariyatining Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy bozorni shakllantirish xususidagi takliflari katta ahamiyatga ega, deb o'layman".

*Charlz TANNOK,  
Yevropa parlamenti deputati,  
Buyuk Britaniya konservatorlar partiyasining  
tashqi ishlar masalalari bo'yicha  
matbuot kotibi*

\* \* \*

"Bugungi kunda O'zbekistonning ijtimoiy hayotida siyosiy partiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati kun sayin ortib borayotganini kuzatish mumkin.Yurtingizda fuqarolik jamiyatni shakl-

Janayotgan hozirgi bosqichda bu narsa nihoyatda zarur, deb o'layman.

Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning boshqa manbalardan emas, aynan davlat budgetidan moliyalashtirilishi, menimcha, sayloving adolatli va tashkiliy jihatdan puxta o'tishini ta'minlaydi. Nomzodlarni boshqa mablag'lar hisobidan moliyaviy ta'minlash va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning qonun yo'li bilan taqilanishi esa demokratik jamiyat sari borayotgan mamlakatning izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, men mamlakatingizda bir o'ziga xoslikning guvohi bo'ldim. Sayovlar jarayonida mavjud partiyalardan tashqari fuqarolarning tashabbuskor guruhlaridan ham nomzodlar ko'rsatilishi mumkin ekan. Bu ham o'rgansa arziydigan tajriba, deb hisoblayman".

*Yorgan BAKLUND,  
YXHT missiyasi vakili*

\* \* \*

"Bu sayovlar O'zbekiston uchun katta imkoniyatlarni yaratdi. Eng avvalo, u mamlakatingizda davlat boshqaruvini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda esa xalqning, aholining turli qatlamlari manfaatlarini ko'zlab ish tutish uchun qulay sharoit yaratiladi. Chunki parlamentning quyi palatasida qonun ijodkorligi bilan shug'ullanadigan xalq vakillari, ya'ni deputatlar, birinchi galda, o'z say-

lovchilarining fikr va qarashlari, manfaatlarini inobatga olgan holda ish yuritadi. Bu esa davlat boshqaruvi va qonun ijodkorligining demokratik tamoyillar asosida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu yurtda yashayotgan fuqarolar manfaatlarining inobatga olinishi esa O‘zbekistonning yanada jadal rivojlanishiga xizmat qilib, uning iqtisodiy, siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Saylovlarni o‘tkazish jarayoni barcha xalqaro talablar asosida tashkil etilgan. Men saylovchilarning ushbu tadbirda faol qatnashayotganini ko‘rdim. Hamma saylov okruglarida fuqarolar uchun zarur sharoit va qulayliklar yaratilgan. Saylovning ochiq va oshkora ruhda o‘tishi ta’minlandi”.

*Vladimir ZAXAROV,  
Shanxay hamkorlik tashkiloti  
ijrochi kotibining o‘rinbosari*

\* \* \*

“O‘zbekistonning ikki palatali parlamentga o‘tishi fuqarolik jamiyatini demokratlashtirish sari katta qadamdir. Mening bu yerda o‘z ko‘zim bilan ko‘rgan jarayonlardan o‘gan taassurotlarim katta. Saylovni o‘tkazishga puxta hozirlik ko‘rilgan. Saylov uchastkalari, ovoz berish xonalarining jihozlanishida kamchilik yo‘q. Eng muhimi, saylovchilarning o‘zi tanlagan nomzod uchun erkin ovoz berish huquqiga to‘la amal qilindi”.

*Ron SKOTT FILIPS,  
AQSH Kongressi Vakillar palatasining  
harbiy ishlar bo‘yicha qo‘mitasi xodimi*

\* \* \*

“Saylovlarda qonuniy yo‘l bilan ko‘p ovozga ega bo‘lgan siyosiy harakatgina haqli ravishda parlamentda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Saylov oldidan tashkil etilgan konferensiyalarda ana shu kabi masalalar atroficha ko‘rib chiqildi. Mening nazarimda, bu konferensiyalardan ko‘zlangan asosiy maqsad birovga maslahat yoki ko‘rsatma berish emas, balki dolzarb masalalar yuzasidan ochiq muloqot, o‘zaro axborot almashinuviga erishish edi va bunga to‘liq erishildi. Men O‘zbekistondagi saylovlar transparentlik, ya’ni oshkoraliq ruhida o‘tishi uchun zarur sharoitlar yaratilganiga ishonch hosil qildim”.

*Elizabet RADZIJEVESKA,  
Polsha parlamentining Markaziy Osiyo  
bilan aloqalar bo‘yicha guruhi rahhari*

\* \* \*

“Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida demokratik jarayonlar bir necha yuz yildan buyon davom etib kelmoqda. O‘zbekistonda esa uning boshlanganiga 10 yildan sal ko‘proq bo‘ldi. Bugun mamlakatda beshta partiya faoliyat ko‘rsatmoqda, ularning har biri o‘z dasturini ilgari surmoqda, bu esa aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, uning saylov kampaniyasida qatnashishdan va saylov natijalaridan manfaatdorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlar fikridan qat’iy

nazar, avvalo xalqning o‘zi saylov nechog‘liq qonuniy bo‘lganini belgilaydi”.

*Piter JEYMS XIKMAN,  
AQSH Milliy matbuot markazi  
vitse-prezidenti*

\* \* \*

“Bizning jamg‘armamiz, mana, o‘n yildirki, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatib, bu yerda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Shu vaqt ichida saylov jaryyonining bevosita ishtirokchilari bo‘lgan siyosiy partiyalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatdik.

Ma’lumki, dunyoda turlicha saylov tizimlari mavjud, har bir mamlakat, o‘z sharoiti va an’analardan kelib chiqqan holda, o‘ziga eng qulay va mos tizimni tanlaydi. O‘zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish jamiyatni yanada demokratlashtirishning yangi bosqichi bo‘ladi”.

*Anya-Mariya KESEER,  
Konrad Adenauer jamg‘armasining  
Markaziy Osiyo va Kavkaz  
bo‘yicha mintaqaviy vakili*

\* \* \*

“O‘zbekistorning qonunchilik bazasi keyingi yillarda jiddiy ravishda takomillashtirildi. Xususan, O‘zbekiston inson huquqlariga rioya qilishga doir

barcha asosiy xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Bu hujjatlar jamiyatda demokratiyani rivojlantirish, qonuniylikni ta'minlash, erkin saylov o'tkazish, demokratik institutlar vakolatlarini kengaytirishda asos bo'lib xizmat qilyapti. Ushbu jarayonni yanada rivojlantirish uchun biz bundan buyon ham O'zbekiston bilan hamkorlik qilishga tayyormiz".

*Per NURMARK,  
YXHTning Toshkentdag'i markazi  
rahbari vazifasini bajaruvchi*

\* \* \*

"Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi har qanday davlatning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, mamlakat kelajagi, uning taraqqiyot yo'lini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu jarayonda shakllangan yangi parlamentning ikki palatasi faoliyatida o'zaro uyg'unlikning mavjudligi ham foydadan xoli bo'lmaydi".

*Raynxard KRUMM,  
F.Ebert jamg'armasi mintaqaviy  
vakolatxonasi rahbari, Germaniya*

\* \* \*

"Ikki palatali parlamentga o'tishning o'zi demokratiya yo'lidagi yana bir qadamdir. Professional deputatlar faoliyatining besh yil bo'lishi qonunchilik sifatiga ijobiy ta'sir qiladi. Deputatlar parlamentda qancha uzoq ishlasa, shuncha yaxshi, chunki bu barqarorlik belgisi hisoblanadi. O'zbekistonda palatalar

o‘rtasidagi munosabatlarning aniq belgilab qo‘yilgani parlamentning samarali ishlashi uchun muhim omil bo‘ladi. Yangi qonunchilikda ko‘zda tutilgan o‘zaro cheklash va muvozanatni saqlash tizimi parlamentda kuchlar tengligini shakllantirish imkonini yaratadi, bu esa demokratik o‘zgarishlarni davom ettirishda O‘zbekiston uchun juda ijobiy ahamiyatga ega”.

*Richard GLAUB,  
AQSH Milliy demokratik  
institutining dasturlar direktori*

\* \* \*

“Mening O‘zbekistonga bu galgi tashrifimdan olgan ilk taassurotim shuki, mamlakatda rivojlanish bor. Odamlarning kelajakdan umidi katta ekanini sezdim. Bularning barchasi ijobiy xususiyatga ega. Bu fikr saylovlargacha ham taalluqlidir. Menimcha, bular mamlakatingizning olg‘a intilishida ulkan odim bo‘ladi.

Albatta, saylovni O‘zbekistonning siyosiy hayotidagi bosqichma-bosqich jarayonning uzviy bir qismi deyish mumkin. Saylovga tayyorgarlik ko‘rishda asosiy e’tibor oshkoraliqka qaratildi. O‘zbekiston butun dunyoga bu yerga kelib, saylovda ekspert sifatida ishtirok etish va uni kuzatish mumkinligini e’lon qildi. Saylovni mamlakat rivojidagi bosqichma-bosqich jarayonning uzviy bir qismi deyishimning yana bir sababi shundaki, uning muvaffaqiyatli o‘tishidan nafaqat hukumat, balki butun O‘zbekiston xalqi manfaatdor edi.

Men saylov arafasida Samarqandda “Siyosiy partiylar va saylov: jahon amaliyoti va O‘zbekiston qonunchiligi” mavzuida bo‘lib o‘tgan konfrensiyada ishtirok etdim. Bu anjuman O‘zbekistonning yetakchi siyosiy partiylariga bag‘ishlandi. Ayrim ekspertlar ushbu partiylar go‘yoki “yuqori”ning tashabbusi bilan tashkil etilgan va shu bois ularning kelajagi yo‘q, deb hisoblashadi. Bu borada mening fikrim mutlaqo boshqacha. Men bu partiyalarning to‘laqonli siyosiy tashkilotlarga aylanayotganini ularga hurmatim ortgan holda kuzatmoqdaman.

Dunyodagi davlatlarning barchasiga bir xil nuqtayi nazardan qarab bo‘lmaydi. Umumiy qadriyatlarga ega bo‘lsa-da, demokratik tizimlar bir-biridan tamomila farq qiladi. Masalan, Fransiya va Buyuk Britaniyani olaylik. Ularning parlament tizimlari, bir-biridan keskin farq qilishiga qaramay, maqbul tarzda ishlamoqda. O‘zbekiston ham o‘z siyosiy tizimini mamlakatda shakllangan shart-sharoit, mintaqadagi vaziyatga muvofiq ravishda qurmoqda. Qolaversa, har bir jamiyat o‘z manfaat va an‘analariga mos keladigan parlamentni, saylov tizimini shakllantirishga haqlidir.

O‘zbekiston – yuksak maqsadlarni ko‘zlayotgan salohiyatli mamlakatdir. Birinchidan, u Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan. Hududi va aholisi bo‘yicha mintaqaning yirik davlati. Buyuk tarixga, boy madaniyatga ega bu zamin shu yerda yashayotgan xalqlarning azaliy ona yurti. Ingliz tilida bu ma’noni aniq ifodalovchi so‘z bor, bu — “heartland” deganidir.

Yurtingiz ilm-fan, madaniyat, texnologiyalar, biznes sohasida ko'plab imkoniyatlarga ega. Mamlakatni boshqarish, jamiyatni rivojlantirish strategiyasi va taktikasida jiddiy yondashuv mavjud. Rahbarlaringiz muammolar bilan astoydil shug'ullanadi. Hatto ba'zan biz ularning biron-bir harakatini maqbul topmasak ham, bundan qat'iy nazar, qarorlaringizni hurmat qilamiz, zero bu yuzaki emas, balki chuqur o'ylangan qaror ekanini yaxshi bilamiz.

Hukumatingiz o'z e'tiborini faqat ichki masalla-larga qaratayotgani yo'q. U mintaqaga miqqosidagi muammolar bo'yicha ham muhim yondashuvga ega bo'lib, bu borada ham muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. O'zbekiston ko'p yillik afg'on mojarosini hal etishda, ayniqsa, alohida rol o'ynadi".

*Frederik STARR,  
J.Xopkins universitetining  
Markaziy Osiyo va Kavkaz  
instituti direktori*

\* \* \*

"Davlat rahbarining mazkur ma'rzasini mustaqil O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi-ning dasturiy hujjati sifatida baholash lozim.

Ma'rizada respublikadagi demokratik o'zgarish-larga baho berilibgina qolmay, yaqinda faoliyatini boshlagan ikki palatali parlament sharoitida jamiyatni yanada rivojlantirishning aniq istiqbollari ham o'z ifodasini topgan.

Ayniqsa, mamlakatning demokratik yangilanish va erkin ijtimoiy tuzumga xos bo'lgan barcha asosiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi bosqichma-bosqich, izchil harakati hozirgi kunda hech qanday kuch to'xtata olmaydigan muqarrar, qonuniy jarayonga aylangani xususidagi fikrlar alohida e'tiborga molik. Bu O'zbekistonning tanlab olgan yo'lidan sobit-qadamlik bilan borayotganidan yana bir bor dalolat beradi".

*Yuriy KASHLEV,  
Rossiya Tashqi ishlar vazirligining  
Diplomatiya akademiyasi prorektori, professor*

\* \* \*

"O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida parlament islohotlari yakunidan kelib chiqadigan vazifalarning bat afsil tahlili bilan birga, hukumatning istiqboldagi asosiy faoliyat yo'naliislari belgilab berildi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'ruza muallifi — Prezident Islom Karimovning mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishdagi muhim roli, uning mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotiga doir chuqur bilimi va tajribasi ushbu hujjatning ahamiyatini yanada oshiradi.

Qonunchilik hokimiyatini mustahkamlash, mahalliy hokimiyat organlarining tobora ortib bora-

yotgan mavqeyining tan olinishi va bu borada O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshiri-  
layotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Mazkur  
jarayon uzoq muddatli bo'lib, hayotga faqat bos-  
qichma-bosqich tatbiq etilishi mumkin. Qonunlar  
va qarorlar qabul qilish bilangina bunga erishib  
bo'lmaydi. Siyosiy hokimiyatning yangi shakllari  
xalqda yangicha mentalitet, yangicha fikrlash tarzini  
tarbiyalaydi. Bu ham vaqt bilan bog'liq masala va  
mazkur yo'nalishda ham shoshma-shosharlikka yo'l  
qo'yib bo'lmaydi.

O'zbek xalqining dunyoqarashini e'tiborga olish  
kerak. Prezident o'z ma'rzasida ta'kidlaganidek,  
hamma yerda va hamisha qo'llasa bo'ladigan universal  
modelning o'zi yo'q. O'zbek xalqining o'ziga xosligi  
uning qadimiy tarixi, an'analarini va urf-odatlari,  
diniy qarashlari bilan uzviy bog'liq.

O'zbekistonda qonunchilik hokimiyatini mustah-  
kamlash bilan bir qatorda, har qanday vaziyatda  
aniq va tezkor qarorlar qabul qila oladigan va ularni  
bajarishga qodir ijro hokimiyatiga ham ehtiyojning  
mavjudligini esdan chiqarmaslik kerak. Ijro hokimiyati  
xalifalik o'rnatishga urinayotgan diniy funda-  
mentalizmga qarshi qat'iy kurashmog'i lozim.  
Terrorchilik harakatlarini hech qanday bahona, hech  
qanday siyosiy maqsad oqlay olmaydi. Ijro hoki-  
miyati terrorizmga qarshi kurashda birlashtiruvchi va  
oldinga boshlovchi kuch bo'lishi kerak.

Bu esa, demokratiya talablari qanday bo'lishi-  
dan qat'iy nazar, terrorizmga qarshi kurash masalasi

birinchi darajali ahamiyatga ega ekanini anglatadi. Terrorizm tahdidi Yevropaga nisbatan Markaziy Osiyo uchun ancha xavfliroq. Chunki Yevropada terrorchilar begunoh kishilarni qurban qilayotgan bo'lsa, Markaziy Osiyoda ular mavjud davlat tuzumini to'ntarishni maqsad qilib olgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda umumiyligi bozorni barpo etish haqidagi tashhabbusiga kelsak, Yevropa hamjamiyatining tajribasi shuni ko'rsatdiki, mintaqaviy integratsiya — murakkab jarayon bo'lib, u davlatlardan o'zlarining ayrim manfaatlardan voz kechishni, ko'plab murakkab masalalarning oqilona yechimini topishni talab etadi.

Mamlakat aholisining tez o'sib borayotgani ijobjiy ahamiyatga egaligi bilan bir qatorda, muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi. O'zbekistonning mehnat bozori har yili yangi ishchi kuchlari — minglab yoshlar bilan to'lmoqda. Ayni vaqtda, respublika iqtisodiyoti oldida yangi ish o'rnlari yaratish, yangi korxonalar tashkil qilish, mamlakat eksport salohiyati va sayyohlik biznesini rivojlantirishdek alohida ustuvor vazifalar turibdi.

Men O'zbekiston kelajagiga katta ishonch bilan qarayman. Bu ishonch o'zbek xalqi ajoyib fazilatlarga ega ekani bilan izohlanadi. O'zbeklar zakovatli va mehnatkash, xorijliklarga doimo do'stona munosabatda bo'ladigan xalq. Shaxmat bo'yicha jahon championligini qo'lga kiritgan Rustam Qosimjonovning jasorati o'zbeklar katta intellektual salohiyatga ega ekani, fan va yuqori texnologiyalar

sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erisha olishini yana bir bor isbotladi. Ishonchim komilki, o'zbek xalqi o'zining munosib kelajagini o'zi yaratishga qodir".

*Roman YAKEMCHUK,  
Belgiyadagi Lyuven katolik universitetining  
professori, Yevropa Ittifoqi eksperti*

\* \* \*

"O'zbekiston rahbarining parlament palatalari qo'shma majlisidagi ma'rzasida mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash yuzasidan muhim fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan. O'zbekiston hukumatining mamlakat barcha fuqarolarining munosib ravishda ta'lim olishiga yo'naltirilgan siyosati ayniqsa e'tiborga molik. Chunki ta'lim odamlarni istiqbol va kelajak sari yetaklaydi, ularning iqtisodiy va madaniy jarayonlardagi faol ishtirokini rag'batlantiradi".

*K.LADAGA,  
Nederlandianing Fontis  
universiteti professori*

\* \* \*

"O'zbekistonda saylov jarayoni o'z-o'zidan, yo'q joydan tashkil etildi desak, yanglish bo'lardi. Bu borada muayyan tajriba to'planib, tegishli poydevor qo'yilgan edi. Har bir davlat o'z saylov tizimiga ega, jumladan O'zbekistonning ham ijtimoiy-tarixiy qadriyatlarga asoslangan o'ziga xos saylov tizimi mavjud. Shu bilan birga, O'zbekis-

ton jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida o'z saylov qonunchiligidagi xalqaro me'yorlarni ham aks ettirgan".

*S.KARENDOF,  
AQSH yuristlar assotsiatsiyasi  
mintaqaviy direktori*

\* \* \*

"Bizning mamlakatlarimiz yosh demokratik davlatlardir va bu borada Rossiyada ham, O'zbekiston tonda ham ko'plab o'xshash jihatlar bor. Mamlakatingiz mana shunday bosqichma-bosqich iqtisodiy va siyosiy tub o'zgarishlar yo'lini bejiz tanlamagan. Va bu o'z samarasini bermoqda. Saylov komissiyasi o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi, saylovda raqobat mavjud. Bir mandatli okrugda bitta o'ringa to'rt kishi to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, o'zbekistonlik saylovchilarda tanlash imkoniyati bor. Bu yurtingizda demokratiya mavjudligidan, uning tegishlichcha namoyon bo'layotganidan darak beradi. Siyosiy partiyalari o'tgan saylovlarga qaraganda bu galgi saylovda saylovchilarga o'z pozitsiyasini yetkazishda katta imkoniyatlarga ega bo'ldi".

*Aleksandr VESHNYAKOV,  
Rossiya Federatsiyasi Markaziy  
saylov komissiyasi raisi*

\* \* \*

“Mening taassurotlarim juda ijobiy. Biz saylovga tayyorgarlik ishlarini va bevosita saylov kuni ovoz berish jarayonini baholash uchun keldik. Men Toshkentda ham, Xiva va Buxoroda ham bo‘ldim. Tayyorgarlik darajasi yuqori saviyada ekanini ta’kidlashni istardim. Dastlabki bosqichda va ovoz berish kunida faollik va yuksak uyushqoqlikka guvoh bo‘lganimizni qayd etmoqchiman.

Quvonarlisi, barcha saylov uchastkalarida, hamma joyda saylovchilarning ro‘yxatlari ilingan. Ba’zi hollarda o‘z ism-familiyasini ro‘yxatda topa olmaganlarni shu zahoti qo‘srimcha ro‘yxatga yozib qo‘yishganini ko‘rdik. Saylovchilardan hech qanday shikoyatlar tushmadi. Biz saylov uchastkalariga kela olmaydigan odamlar saylov kuni qanday ovoz berishi bilan ham qiziqdik. Keksalar, nogironlar va bemorlar uchun uyda ovoz berish shakli ko‘zda tutilgan. Shu bois bu masala ham ijobiy hal etilgan, deb aytsak bo‘ladi. Saylovlar yuqori darajada va O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq o‘tdi.

Missiyamizga saylovlarni kuzatishi uchun zarur bo‘lgan barcha sharoit yaratildi, shu bois, imkoniyatdan foydalanib, minnatdorligimizni bildirishni istardim. Yana ta’kidlamoqchimanki, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish ancha yuqori. Shubhasiz, O‘zbekistonga oldingi va bu galgi tashriflarimni qiyoslab ko‘ryapmanki, deyarli butun mamlakat bo‘ylab ommaviy qurilish, bunyodkorlik ishlari avjida. Hamma yerda odamlar bilan muloqotda bo‘lib, ularning kayfiyati ko‘ta-

rinki ekanini ko'rdik. Menimcha, bu o'ta mam-nuniyat bag'ishlaydigan holat".

*Vladimir RUSHAYLO,  
MDH ijroiya qo'mitasi kotibi*

\* \* \*

"O'zbekiston — Markaziy Osiyo mintaqasida muhim o'rin tutadigan davlat. Mamlakatingiz boy tabiiy va mehnat zaxiralariga egaligi, malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berishi bilan ajralib turadi.

Ikki palatali parlamentning shakllanishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar yo'lidagi muhim qadam ekani shubhasiz. Shuni ta'kidlashni istardimki, barcha mamlakatlar o'z qonunchilik uslubi va yo'liga ega. Bo'lib o'tgan parlament saylovleri O'zbekistonda ham o'ziga xos qonunchilik maktabi shakllanayotganini ko'rsatdi.

Parlament islohotlari hokimiyat organlarini yangi davr sharoitiga moslashtirish, ularni demokratiyaning umume'tirof etilgan me'yorlariga muvofiq ravishda takomillashtirish borasida, shuningdek, huquqiy davlat qurish yo'lidagi yana bir dadil qadamdir.

Yaponiya jamoatchiligi yurtingizdagи yangilanish va o'zgarishlarni katta qiziqish bilan kuzatib kelmoqda. Ikki palatali parlament O'zbekistonda demokratik tamoyillarni yanada mustahkamlashda, jamiyat hayotining barcha sohalarini erkin-

lashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, deb ishonaman”.

*Yuichi KUSUMOTO,  
Yaponiyaning O‘zbekistondagi  
Favqulodda va muxtor elchisi*

\* \* \*

“Yaqinda Misr televideniyasi orqali O‘zbekistonning parlament islohotlari, umuman, sizning davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi ibratli tajribangiz tahliliga bag‘ishlangan maxsus ko‘rsatuv namoyish etildi. Aytish kerakki, O‘zbekiston chindan ham bu borada e’tirof etsa va o‘rgansa arzigulik muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Biz mamlakatingizning demokratik taraqqiyot, jahon ham-jamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik borasidagi sa‘y-harakatlarini ayniqsa yuqori baholaymiz”.

*Hamdi Hamdi ABDULAYNEYN,  
Misr Arab Respublikasi savdo-sanoat  
palatasi raisi o‘rinbosari*

\* \* \*

“O‘zbekistonda ikki palatali parlament tizimining shakllantirilishi demokratik jarayonlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi, deb o‘ylayman. Professional parlamentning yuzaga kelishi oliv vakillik organining mamlakat siyosiy hayotida yanada faol ishtirokini ta’minlash bilan birga, xalqning siyosiy faolligini oshirish va fuqarolik jamiyatini yaratishda o‘ziga xos omil bo‘ladi.

Shuni ham aytmoqchimanki, bugungi kunda parlamentlararo aloqalar mamlakatlarimiz hamkorligining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. 2003-yilning iyun va noyabr oylarida Chexiya Respublikasi Senatining tashqi aloqalar, mudofaa va xavfsizlik hamda iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va transport masalalari bo‘yicha qo‘mitalarining raislari O‘zbekistonda bo‘lib, Oliy Majlis vakillari bilan uchrashgan edi. Bu qonunchilik sohasidagi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim qadamlardan bo‘ldi. O‘zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllanishi esa ana shu aloqalarning istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratadi”.

*Alesh FOYTIK,  
Chexiya Respublikasining O‘zbekistonidagi  
Favqulodda va muxtor elchisi*

\* \* \*

“Men 2001—2003-yillarda O‘zbekistonda elchi sifatida faoliyat ko‘rsatganman. Oradan bor-yo‘g‘i bir yil vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan, mamlakatingizda ko‘plab o‘zgarishlar yuz beribdi. Ayniqsa, qonunchilik va ijtimoiy-siyosiy sohalarda erishilgan yutuqlar diqqatga sazovor. Yaqinda bo‘lib o‘tgan saylovlarning mamlakatingizdagি qonunchilik va xalqaro andozalardan kelib chiqqan holda tashkil etilgani, bu jarayondagi oshkorlik va teng huquqlilik alohida e’tiborga molikdir. Ushbu muhim tadbirda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish imkoniyatiga ega

bo'lganimdan, O'zbekistonga yana bir bor kelganimdan mamnunman”.

*Chjan CHJIMIN,  
Xitoy Xalq Respublikasining  
Tashqi ishlar kanselyariyasi  
maslahatchilar guruhi a'zosi*

\* \* \*

“O'zbekistondagi parlament islohotlari xususida shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, mamlakatingizda bu borada keng ko'lamdag'i ishlar, salmoqli o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Ishonchim komilki, bu sa'y-harakatlar, intilishlar yaqin yillarda o'z samarasini beradi.

Yana shuni ham aytmoqchimanki, mustaqillik yillarida mamlakatingizning qadimiy tarixini teran o'rganish, boy ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash masalalariga jiddiy e'tibor qaratilayotgani e'tirofga sazovor. Qadimiy sivilizatsiya makonlaridan biri bo'lgan O'zbekiston kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ravnaq topib, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylanishiga aminman”.

*Charupat RUANGSUVAN,  
Tailand Markaziy saylov komissiyasi  
raisining o'rinnbosari*

\* \* \*

“Mamlakatingizning ikki palatali parlament tizimiga o'tayotgani uning demokratik jamiyat qurish yo'lidan dadil borayotganidan dalolat beradi.

Chunki bu tizim ko‘pgina rivojlangan davlatlar tajribasida o‘zining ijobiy samarasini bergen.

Mamlakatlarimizni bog‘lab turadigan mush-tarak jihatlar ko‘p. Biz O‘zbekistonni birodar yurt sifatida yaxshi bilamiz. Har ikki davlat o‘rtasi-dagi aloqalarning rivojlanib borayotgani quvonarli hol. Xususan, xalqaro terrorizm va jinoyat-chilikka qarshi kurash borasidagi hamkorlik har ikki tomon uchun ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Shuningdek, safar davomida O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, keng ko‘lamdagi islo-hotlar va bunyodkorlik ishlaringning guvohi bo‘ldim”.

*Mjlad Sayer al-ZAFIRIY,  
Quvayt Ichki ishlar vazirligi  
bosh boshqarmasi boshlig‘i*

\* \* \*

“Bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan islo-hotlar, ikki palatali parlament tizimiga o‘tilishi mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanayot-ganidan dalolat beradi. Bu haqda ko‘plab xorijlik mutaxassislar mendan oldin ham o‘z fikrlarini bildirgan. O‘zim ham yurtingizga kelib, bu fikrlarning haqiqat ekaniga amin bo‘ldim.

Hozir mamlakatingizda bo‘layotgan tarixiy voqeа, chindan ham, kuchli demokratik fuqarolik jamiyatiga o‘tishda asosiy poydevordir. Ayniqsa, hukumat olib borayotgan siyosatga fuqarolarning o‘z munosabatlarini hamjihatlik bilan

bildirishi demokratiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Dunyoning qator mamlakatlarida bo‘lganman. Ko‘pgina davlatlarning islohotlar modeli bilan yaqindan tanishman. Lekin O‘zbekistonga kelib, odamlar bilan suhbatlashganimda, o‘z fikr doiramni kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ldim. O‘zbekiston xalqiga mening tilaklarim ko‘p. Yangi parlament shu xalqning kelajagi, uning farovon turmushi uchun xizmat qiladigan qonunlar qabul qilsin”.

*Dalbir Singx,  
Hindiston Milliy kongressi  
partiyasi Markaziy qo‘mitasi kotibi*

\* \* \*

“O‘zbekiston jahon hamjamiyatida, dunyo taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin egallayapti, deb bemalol aytish mumkin. Serquyosh o‘lkangiz G‘arb va Sharqni birlashtiruvchi Buyuk ipak yo‘li orqali menga yaxshi tanish. O‘tkazilgan saylovlargaga kelsak, Fransiya xalqi saylov jarayonlarini katta qiziqish bilan kuzatib bordi. Mamlakat tarixida sodir bo‘layotgan bu o‘zgarishlar, albatta, kela-jakda o‘z natijasini ko‘rsatadi.

Saylov jarayonlarini kuzatar ekanman, odamlarning siyosiy faolligi diqqatimni tortdi. Ularning ba’zilari bilan suhbatlashganimda, ayniqsa, yosh-larning ikki palatali parlament haqida bildirgan fikrlaridan mammun bo‘ldim. O‘zbekiston qadimiy,

shu bilan birga, demokratiya rivoj topayotgan yosh davlat. Uning albatta taraqqiy etishiga ishonaman”.

*Jan Pyer DYUFO,  
O'zbekiston — Fransiya  
do'stlik jamiyatni a'zosi*

\* \* \*

“O'zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllantirilishi mamlakatda izchillik bilan amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar yo'lidagi muhim qadamdir. Yangi saylanadigan parlament qonunchilikni jamiyat hayotiga imkon qadar yaqinlashtirish, uni demokratlashtirishga yordam beradi. Ikki palatali parlamentning mohiyati ham shunda.

Men mamlakatingizda o'tgan avvalgi saylov kampaniyasida ham qatnashgan edim. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston xalqi ulkan o'zgarishlar va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirganini ko'rib, quvondim. Bunday o'zgarishlar avvalo iqtisodiyot sohasida ko'zga tashlanadi. Bu esa xorijiy sarmoyalarni mamlakatingiz iqtisodiyotiga yanada ko'proq jalb etishda muhim omil bo'lmoqda”.

*Nerri Efraim YUSHVAYEV-KAVALIYER,  
Markaziy osiyolik Buxoro  
yahudiylari uyushmasi raisi, AQSH*

\* \* \*

“O'zbekiston parlament saylovlarini o'tkazish bo'yicha juda to'g'ri yo'lni tanladi. Biz — MDH

mamlakatlari hali juda yosh demokratik davlatlarmiz va saylov o'tkazish bo'yicha tajribamiz juda oz. Shuning uchun ham O'zbekistonda saylovdan oldin o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu o'rinda bugun O'zbekistonda demokratik davlat barpo etish borasida olib borilayotgan ishlar haqida ko'p ijobjiy fikrlarni aytish mumkin. Mamlakatingiz juda qadim va boy madaniyatga ega. Hatto bugun bu yerdagi siyosiy partiylar faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning dasturlari asosan davlat boshqaruvini yanada rivojlantirishga qaratilganiga guvoh bo'lamic. Partiyalarning bunday yaratuvchanlik kayfiyati va intilishlari muhim ahamiyatga ega”.

*Valeriy KIRICHENKO,  
MDH ijroiya qo'mitasi  
raisining o'rindbosari*

\* \* \*

“Aksariyat rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan Italiyada ham ikki palatali parlament mavjud. O'zbekistonda ham shunday parlament faoliyat ko'rsata boshlagani, shubhasizki, mamlakatda demokratik tamoyillarni chuqurlashtirish, hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishda muhim rol o'ynaydi”.

*Anjelo PERSIANI,  
Italiyaning O'zbekistondagi  
Favqulodda va muxtor elchisi*

\* \* \*

“O‘zbekistonda bugun yangi jamiyat barpo etish jarayoni kechmoqda va davlat boshqaruvini demokratlashtirish buning asosi hisoblanadi. Keyingi o‘n yilda demokratiya dunyoda eng ma’qul ijtimoiy qurilish tizimiga aylandi. Biroq uning hamma uchun bir xil modeli mavjud emas. Har bir jamiyat — noyob, o‘ziga xos. Shuning uchun ham xalqingiz demokratiyani o‘z urf-odatlari, an’ana va sharoitlaridan kelib chiqib, xalqaro tamoyillarga tayangan holda shakllantirmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi kelgusida ham O‘zbekistonni demokratik islohotlarni amalga oshirish, jamiyatning siyosiy madaniyatini rivojlantirish hamda parlament tizimini takomillashtirish borasida qo‘llab-quvvatlayveradi”.

*Fikret AKCHURA,  
BMT Taraqqiyot dasturining  
O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy vakili,  
BMTning doimiy muvofiqlashtiruvchisi*

\* \* \*

“Ikki palatali parlamentning shakllanishi — O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etish yo‘lida muhim qadamdir. O‘z navbatida, ushbu parlament tomonidan qabul qilinadigan qonunlarning sifati professional yondashuv, hududlar va ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini aks ettirish, jamoatchilik nazorati darajasiga bog‘liq bo‘ladi”.

*K.OKSYUTA,  
Polsha Seymi deputati*

\* \* \*

“Men O‘zbekistonda ilgari ham bo‘lganman. U — ulkan intellektual salohiyatga ega bo‘lgan boy mamlakat. O‘zbekiston ham, dunyoning ko‘p davlatlari kabi, demokratiya va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish yo‘lini tanlagan. Mamlakatingiz tabiiy ravishda takomillashib boradigan o‘z modelini yaratmoqda. Bu — uzoq va uzlusiz davom etadigan jarayon. G‘arb mamlakatlarining demokratiya borasidagi ko‘p yillik tajribasi O‘zbekiston uchun foydali bo‘lishi mumkin, biroq bu yerda G‘arb ham o‘rgansa arzigulik jihatlar bor. Demokratik, erkin dunyoning yangi qiyofasi aynan shunday hamkorlikda yaratiladi”.

*Reyn MYULLERSON,  
BMT inson huquqlari bo‘yicha  
oliy komissarining Markaziy Osiyo bo‘yicha  
mintaqaviy maslahatchisi*

\* \* \*

“O‘zbekistondagi saylovlар chog‘ida ochiqlik va tashqi dunyo bilan muloqotning yangi yo‘nalishlarini izlash va amalga tadbiq etishga bo‘lgan faol intilishning guvohi bo‘ldim. Bu harakat jarayonida ichki milliy xususiyatlar ham e’tibor-dan chetda qolmagan. O‘zbek xalqining milliy o‘zligiga mos ravishda davlatning siyosiy rivojlani-shining muhim yo‘nalishlari izchil izlanmoqda. Men ekspert, siyosiy sohada ish yuritayotgan tahlilchi sifatida mamlakatingizda, bir tomonidan,

o‘zaro kelishuvning, ikkinchi tomondan esa, partiyalar o‘rtasida juda faol aloqaning mavjudligini ham mammuniyat bilan ta’kidlamoqchiman. Shu bilan birga, partiyalarda o‘z yo‘nalishiga, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lish harakati ham kuchli. Ular o‘rtasida O‘zbekiston taraqqiyotini ta‘minlash uchun o‘zaro mushtarak nuqtalarni topishga bo‘lgan umumiy intilishlar ham yo‘q emas. Ularning barchasi bitta umumiy g‘oya asosida umumiy manfaatlar, umumiy qadriyatlar uchun birgalikda va ayni paytda bahs-munozaralar bilan ishlarmoqda”.

*Anatoliy GUTSAL,  
Ukraina Xalqaro xavfsizlik  
instituti direktori o‘rinbosari*

\* \* \*

“Besh yil oldin YXHTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi kuza-tuvchilari O‘zbekistonda o‘tkazilgan saylovlarni kuzatib, shu asosda o‘z tavsiyalarini bildirgan edi. Bugungi kunda ushbu tavsiya va takliflar inobatga olinayotganidan juda xursandman. Masalan, endilikda O‘zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari saylovlarda o‘z nomzodlarini ko‘rsatmaydi. Bugun siyosiy partiyalarni moliyalashtirishga oid qonun ham mavjud. Shuningdek, meni saylovda xotinqizlar uchun 30 foizlik kvota borligi ham juda mam-nun etdi. Biz O‘zbekistonda saylovlargaga oid targ‘i-bot va tashviqot ishlaridan yaxshi xabardor bo‘ldik

va qizg‘in o‘tgan saylov jarayonini katta qiziqish bilan kuzatdik”.

*Pyer NORMARK,  
YXHTning O‘zbekistondagi  
vakolatxonasi rahbari*

\* \* \*

“Saylovlarning qanday tashkil etilgani har qanday mamlakatda demokratiya darajasining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. BMT Taraqqiyot dasturi 116 davlatda ushbu jarayonni kuzatib boradi. O‘zbekistondagi saylov kampaniyasi mamlakatda demokratik islohotlar davom etayotganidan dalolat beradi va saylov bu borada navbatdagi qadam bo‘ldi”.

*Lyukki ANDERSEN,  
BMT Taraqqiyot dasturining  
O‘zbekistondagi doimiy vakili  
vazifasini bajaruvchi*

\* \* \*

“O‘zbekiston Markaziy saylov komissiyasi tomonidan Rossiya parlamenti a’zolarining saylovda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun taklif qilinishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikka yana bir misol bo‘la oladi. O‘zbekistonda doimiy asosda faoliyat yuritadigan ikki palatali parlamentning shakllanishi mamlakatingizda amalgaloshirilayotgan demokratik islohotlar yo‘lidagi muhim qadamdir. Bunday tuzilma qonun ijod-

korligi jarayonini jamiyat hayotiga imkon qadar yaqinlashtirishga, uni demokratlashtirishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu borada o'zbekistonlik hamkasblarimizdan o'rganadigan jihatlar bor. O'zbekiston parlamenti va Rossiya Davlat dumasi kelgusida hamkorlikni yanada rivojlantiradi degan umiddaman”.

*Ahmed BILOLOV,  
Rossiya Davlat dumasining  
MDH ishlari va vatandoshlar bilan  
aloqalar bo'yicha qo'mitasi raisining  
birinchi o'rinnbosari*

\* \* \*

“O'zbekistonda ikki palatali parlament tizimi -ning shakllantirilishi amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mantiqiy davomidir. Ikki palatali qonunchilik tizimi jamiyat hayotini erkinlashtirishda, aholining siyosiy faolligini yanada oshirishda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblayman.

Har bir jamiyat, o'z sharoitidan kelib chiqqan holda, o'z parlament tizimini tashkil etadi. O'zbekiston xorij tajribasini va o'z milliy qadriyatlarini umumlashtirgan tarzda, o'z parlamenti yaratmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Germaniya oliy qonunchilik idoralari samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Ikki mamlakat parlamentlarining qo'mitalari, komissiya va fraksiyalari o'rtasida doimiy muloqot yo'lga qo'yilgan. Bundaqda faoliyat ko'rsatayotgan Markaziy Osiyo

mintaqasi bo'yicha parlament guruhi yiliga ikki marta O'zbekistonda bo'lib, o'zbek hamkasblari bilan qonunchilik sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashib kelmoqda. O'zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllanishi mamlakatlarimiz oliy qonunchilik mahkamalari o'rtasidagi aloqalar rivojini yangi bosqichga ko'tarishiga ishonchim komil".

*Xans Yoaxim KIDERLEN,  
Germaniya Federativ Respublikasining  
O'zbekiston dagi Favqulodda va muxtor elchisi*

\* \* \*

"Hindiston bilan O'zbekistonning do'stona aloqalari yil sayin mustahkamlanib borayotgani bizni quvontiradi. Otam La'l Bahodir Shastri xotirasiga O'zbekistonda alohida hurmat va ehtirom ko'rsatilayotganidan behad mamnunman.

Ikki palatali parlamentga bo'lgan saylov xalqin gizning demokratiya yo'lida qo'ygan yana bir dadil qadami bo'ldi. Deputatlikka nomzod ko'rsatishda xotin-qizlar uchun 30 foiz kvota ajratilgani ayniqsa e'tiborga sazovor. Bu imkoniyat xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlashda muhim omil bo'ladi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning barchasida ham xotin-qizlarning hokimiyat tuzilmalaridagi ishtirokini kengaytirishga bu darajada ulkan e'tibor qaratilmasligi sir emas.

Ayni paytda yurtingizda yosh avlod tarbiyasiga ustuvor vazifa deb qaralishiga guvoh bo'ldim. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga samarali tatbiq etilayotganini Toshkentdag'i hind tiliga ixtisoslashgan 24-maktabda o'z ko'zim bilan ko'rdim".

*Anil SHASTRI,  
Hindiston Milliy kongressi  
partiyasi kotibi*

\* \* \*

"O'zbekistonga bundan 8 yil ilgari ham kelgan edim. O'tgan qisqa vaqt mobaynida mamlakatingizda ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilibdi. Qonunchilik va ijtimoiy-siyosiy sohalarda erishilgan yutuqlar, ayniqsa, diqqatga sazovor.

O'zbekistonning ikki palatali qonunchilik tizimiga o'tish to'g'risidagi qarori muhim voqeadir. Bu mamlakatingizning demokratiyani yanada mustahkamlash uchun to'g'ri yo'l tanlaganidan dalolat beradi. Ikki palatali parlament tizimining shakllantirilishi O'zbekiston taraqqiyotiga yangi sur'at baxsh etadi, deb o'layman. Saylovning mamlakatingizdagi qonunchilik va xalqaro andozalardan kelib chiqqan holda tashkil etilgani alohida e'tiborga loyiqdир. Saylov jarayonidagi ochiqlik va transparentlik esa Yevropa jamoatchiligi tomonidan qizg'in qarshi olindi. Ushbu muhim tadbirda

kuzatuvchi sifatida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lganimdan xursandman".

*Diyetmar LUTS,*

*Germaniyaning Shlezvig-Xolshtayn federal yeri  
Ichki ishlar vazirligining qonunchilik  
boshqarmasi boshlig'i hamda Markaziy  
saylov komissiyasi raisi*

\* \* \*

"Turli mamlakatlar tajribasi, ulardagi parlament tizimlari faoliyatining eng ilg'or shakllarini o'rganish O'zbekistonga ham xalqaro demokratik tamoyillarga, ham milliy manfaatlarga to'la javob beradigan o'ziga xos tizimni shakllantirish imkonini bermoqda".

*Yasuo NAKAUCHI,  
Yaponiya parlamenti yuqori palatasи  
rejalashtirish va kelishuv bo'limi  
direktori yordamchisi*

\* \* \*

"O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan buyon unchalik ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, katta muvaffaqiyatlarga erishibdi. Ikki palatali parlament tizimiga o'tish demokratiya yo'lidagi muhim qadamdir. Saylovga tayyorgarlik va uni o'tkazish jarayoni ham bizga juda ma'qul bo'ldi".

*Daan DIMARI,  
Indoneziya Markaziy saylov  
komissiyasi a'zosi*

\* \* \*

“Avvalo, mamlakatingizda saylovga tayyorgarlik bo‘yicha katta ijobiy tajriba to‘planganini aytishim kerak. Odamlar bilan suhbat jarayonida saylovchilarning saylov qonunlaridan yaxshi xabardor ekaniga amin bo‘ldim. Saylov haqidagi axborotlar odamlarga to‘liq va o‘z vaqtida yetkazib berilgan. Shuning uchun ham mamlakatingizda saylovlar demokratik tarzda o‘tdi. Xalqingiz faollik bilan eng munosib nomzodlarni saylash uchun jon kuydirdi”.

*Petr GARLKEVICH,  
MDH ijroiya qo‘mitasi maslahatchisi*

\* \* \*

“Saylovlarda odamlarning faolligi e’tiborimni tortdi. Men kuzatuv olib borgan uchastkada soat o’n birlardayoq ellik foiz saylovchi o‘z fuqarolik burchini ado etib bo‘ldi. Jiddiy kamchiliklar ko‘zga tashlanmadi. Muayyan bir yetishmovchiliklar bo‘lishi mumkin, bu — tabiiy. Umuman, saylov demokratik ruhda o‘tganini ta’kidlash kerak.

Men bir narsaga alohida e’tibor berdim. Saylov komissiyalari va uchastkalarining aksariyati kollej va litseylarda joylashgan. Olimpiya rezervlari kollejida bo‘ldim. G‘oyat hayratlanarli inshoot. U yerdagi narsalar — binoning o‘zidan boshlab, jihozlar, mutaxassisu kadrlar — barchasi zamon talablari darajasida. O‘rgansa arziydi”.

*Sergey JALNEROVICH,  
MDH ijroiya qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i*

\* \* \*

“Saylovlar munosabati bilan sizlarda qonunchilikda qator o‘zgarish va yangiliklar yuz bergan. Ya’ni, ikki palatali parlamentni shakllantirish maqsadida ilk marotaba qonunlarga saylovlarining demokratik asosda o‘tishini ta’minlashga qaratilgan bir qator muhim o‘zgartishlar kiritilgan”.

*Oleg KULEBA,  
MDH ijroiya qo‘mitasi maslahatchisi*

\* \* \*

“Hozirgi paytda barcha xalqaro hujjatlarda o‘tish davridagi mamlakatlarda aynan kvota berish orqali parlamentda xotin-qizlar sonini ko‘paytirish mumkinligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekistonda ham parlament saylovlarida ishtirok etish uchun ayollarga 30 foizlik kvota belgilandi. Men davlatingiz tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnoma va konvensiyalarda belgilangan bu kabi tavsiya va takliflar to‘laqonli bajarilayotganidan juda xursandman. To‘g‘risini aytishim kerak, o‘zbek xotin-qizlariga juda havasim kelyapti. Chunki mamlakatingiz rahbariyatining tashabbusi tufayli parlamentda xotin-qizlar soni ko‘payadi”.

*Yelena BASHUN,  
“Rossiya ayollar ittifoqi” vakilasi*

\* \* \*

“O’zbekistonning ikki palatali parlamentga o’tishi jamiyatni demokratlashtirish yo’lidagi katta qadamdir. Siyosiy partiyalardan ko’rsatilgan deputatlikka nomzodlarning o’ttiz foizdan ortig‘i xotin-qizlar ekanı ham ayollarning, ham jamiyatning katta yutug‘i. O’zbekiston xotin-qizlari juda mehnatkash, ular orasida fan, madaniyat, iqtisodiyot sohasida faol ish yuritayotgan yuksak malakali mutaxassislar juda ko‘p. Ular mamlakatning yanada gullab-yashnashiga salmoqli hissa qo’shamoqda.

O’zbekistonga ilgari ham kelganman. Ammo bu galgi tashrifim chog‘ida men mamlakatingizga yanada maftun va mahliyo bo‘lib qoldim. U — ajoyib, mehribon, saxovatli insonlar vatanidir. Buyuk Amir Temuring vorislari boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas”.

*Juzeppina Laura MADJI,  
Rimdagи “Limuchi” xalqaro madaniyat  
gumanitar universiteti professori*

\* \* \*

“Yurtingizga bir necha bor tashrif buyurgaman. Va har gal O’zbekistonga kelishga oid takliflarni bajonidil qabul qilaman. Safarim chog‘ida qator yangi va ijobjiy o’zgarishlarning guvohi bo‘laman. Odamlar saylovlarda faol qatnashmoqda. Bu ularning mamlakatdagi siyosiy jarayonlarga befarq emasligidan darak beradi. Eng asosiysi esa bu

o'zgarishlar avvalo odamlaringizning ongu shuurida ro'y bermoqda. Erkinlik, mustaqillik degan g'oyalar ularning tafakkurida o'z aksini topganini payqadim".

*Jozef GOLDBLAT,  
Jahon muammolarini tadqiq etish  
Jeneva xalqaro instituti vitse-prezidenti*

\* \* \*

"Erta tongdanoq hamma saylov uchastkalarida saylovchilarni uchratdim. Bu aholining barcha qatlami bugungi jarayonga befarq emasligidan dalolat edi. Saylovni o'tkazish yuqori saviyada tashkil etilgani, demokratiya talablariga mos ravishda o'tayotganidan bildimki, O'zbekiston demokratiya tamoyillariga amal qilmoqda. Taraqqiyot sari qadam tashlayotgan mamlakatning kelajagi buyuk ekaniga ishonch hosil qildim".

*K.VARIKOU,  
Javoharla'l Neru nomidagi  
Hindiston universiteti professori*

\* \* \*

"O'zbekistonga ikkinchi bor kelishim. Bugungi kunda yurtingizda keng qamrovli demokratik o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y berayotganining guvohi bo'ldim. Buni mamlakatingiz qonun chiqaruvchi oliy organi faoliyatidagi yangilanishlar jaranonda ham ko'rish mumkin. Avvalo, o'ta muhim

siyosiy tadbir — saylovlarning yuqori saviyada o'tishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini va unda faol ishtirok etgan xalqingiz o'z xohish-irodasiga tayanib, munosabatini erkin bildirganini ta'kidlamoqchiman. O'zbekistonda ikki palatali parlamentning shakllanishi demokratiya sari tashlangan salmoqli qadam bo'lishi bilan birga, deputatlarning qonunlar yaratishdagi imkoniyatini yanada kengaytiradi.

O'zbekistonning yorqin kelajagi, avvalambor, shu yurtning zukko, serg'ayrat, sog'lom va salohiyatli yoshlari qo'lida, deb bilaman. Yurtingizda esa iqtisodiyot, fan va boshqa sohalarda ham qobiliyatli yoshlar, mutaxassislar ko'pchilikni tashkil etadi. Bunga Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti va boshqa o'quv dargohlarining talabalari bilan bo'lgan uchrashuvlarda amin bo'ldim. Shu bois, mamlakatingiz o'tish davri muammlarini tez orada muvaffaqiyatli hal etib, iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga dadil qadam qo'yishiga ishonaman".

*Shirin AKINER,  
London universitetining Sharq va Afrika  
tadqiqotlari maktabi lektori*

\* \* \*

"O'zbekistonda o'tkazilgan saylovlar nafaqat mazkur davlat uchun, balki butun MDH va xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda men O'zbekiston

tanlagan yo'lni juda to'g'ri yo'naliш sifatida e'tirof etaman. Hozirgi vaqtida mamlakatda tinchlik va osoyishtalik saqlangan, siyosiy kelishuv ta'minlangan holda demokratik davlatlar oilasiga integratsiyalashuv jarayoni qizg'in kechmoqda. Saylovlarga tayyorgarlik va uning o'tkazilishi shuni ko'rsatdi".

*Vitaliy PALAMARCHUK,  
siyosatshunos, Rossiya*

\* \* \*

"O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish maqsadida qabul qilingan yangi qonunlar davlatingiz uchun juda katta muvaffaqiyat hisoblanadi. Biz buni demokratiya sari qo'yilgan muhim qadam sifatida baholaymiz va qizg'in qo'llab-quvvatlaymiz".

*Nina NIJNIK,  
Ukraina Prezidenti huzuridagi  
Boshqaruв akademiyasi prorektori*

\* \* \*

"Prezident Islom Karimovning O'zbekiston parlamenti palataрining qo'shma majlisidagi ma'rzasasi bilan chuqur tanishib chiqdim. Uning asosiy mazmun-mohiyati haқida keng va atroficha to'xtalish mumkin. O'zbekiston rahbarining ma'rzasida o'zbek jamiyati rivojlanishining asosiy tamoyil va yo'naliшlari o'z aksini topgan bo'lib,

unda davlatning ichki, tashqi va iqtisodiy siyosatiga doir barcha vazifalar qamrab olingan”.

*Muhammad SAYYID,  
Misrdagi “Al-ahrom” siyosiy  
va strategik tadqiqotlar markazi  
direktorining o‘rnibosari*

\* \* \*

“O‘zbekistonda demokratik saylovlar o‘tkazish uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi. Ayni paytda mamlakatingizda demokratik tamoyillar ko‘p asrlik tarixga ega. Ular mahalla atalmish ijtimoiy institut tomonidan yaratilgan. Endi bu jarayonga siyosiy partiyalar, butun jamiyat qo‘silmoqda. Bugun O‘zbekistonning demokratik qurilish tajribasi xorijiy mutaxassislarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan beshta siyosiy partiya sog‘lom siyosiy raqobatni kuchaytiradi. Biz O‘zbekistonda saylov qonunchiligi me’yorlari demokratik talablarga javob berishiga, saylovlarga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilganiga ishonch hosil qildik”.

*Andrey MISHIN,  
Ukraina fuqarolik jamiyatini  
muammolarini o‘rganish markazi  
muvofiqlashtiruvchisi*

\* \* \*

“O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar e’tiborga molik.

O'zbekistonning saylov qonunchiligi xalqaro me'yor va andozalarga to'liq javob beradi, fuqarolarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishdagi ishtiroki uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ayni paytda ikki palatali parlament faoliyatini tashkil etishda rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan ham keng foydalanilmoqda".

*Koji ONO,  
Yaponiya Nagoya universiteti professori*

\* \* \*

"Mamlakatingiz Markaziy Osiyoning yuragi hisoblanadi va O'zbekistondagi har qanday tub o'zgarishlarning butun mintaqadagi voqelikka ta'siri bo'ladi. Aminmanki, saylov tizimidagi yangiliklar, uni demokratik saylovlarning xalqaro standartlariga moslashtirish, ikki palatali parlamentga o'tish O'zbekistonni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy rivojlantirishda ijobiy samara beradi, chunki qabul qilinayotgan qonunlarning sifati va ta'sirchanligi ortadi".

*Irsan ULKU,  
siyosiy sharklovchi, Turkiya*

\* \* \*

"O'zbekistonga ko'p bor kelganman. Eski tuzum paytida ham bu yerda bo'lган edim. Yurtingizning sovet davridagi qiyofasi bilan bugungi kuni o'rtasida

yer bilan osmoncha farq bor. Mustaqillik xalqingizga o'zlikni anglash, tarixni xolis o'rganish va qadrlash, o'zining buyuk istiqbolini yaratish imkonini berdi. Istiqlol yillari mamlakatingiz uchun ulkan buniyodkorlik, yaratuvchanlik davri bo'lgani yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Bularning barchasiga men ham guvoh bo'lib turganimdan va umuman, o'zimni O'zbekistonning chin do'sti deb bilishim-dan g'oyat mamnunman.

Tanishlarim ba'zida «Nega O'zbekiston haqida ko'p yozasan, nima uchun O'zbekistonni buncha targ'ib qilasan?» deb so'raydi. Shunda men, O'zbekiston ulkan salohiyatga ega mamlakat, uning xalqi o'z tarixini qadrlaydi, ertasiga ishonadi, o'zbekistonliklar — u xoh davlat xizmatchisi, xoh ijodkor, san'atkor, oddiy fuqaro bo'lsin — o'z Vatanini chin dildan, yuksak muhabbat bilan sevadi, deb javob beraman. Shunday yurt haqida har qancha yozsa arziydi”.

*Bxushan Chand GUPTA,  
Dehlida nashr etiladigan  
«Soshialluk interneyshnl»  
jurnalining bosh muharriri*

\* \* \*

“Rossiya ommaviy axborot vositalari vakillari nomidan faoliyat yuritayotgan jurnalistlar mamlakat xalqining O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan saylov huquqiga hurmat bilan

yondashadi, chunki unda hokimiyat vakolatlari xalqning eng yaxshi vakillariga berilishi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, navbatdagi saylov marafoni boshlanishini diqqat bilan kuzatar ekanmiz, barcha ishtirokchilarining O'zbekiston xalqiga xos bo'lgan odob doirasida harakat qilganini mamnuniyat bilan qayd etamiz. Menimcha, qora piarni istisno qiluvchi, o'zaro haqoratlarga yo'l qo'ymaydigan bu fazilat o'zbek xalqi mentaliteti, dunyoqarashining uзвиy bir qismi. Bu esa yana bir bor samimiy hurmat tuyg'usini uyg'otadi".

*Valeriy BIRYUKOV,  
"Trud" gazetasining Markaziy Osiyo  
davlatlaridagi vakolatxonasi mudiri*

\* \* \*

"O'zbekiston Prezidenti "Qo'shning tinch – sen tinch" degan maqolni tez-tez tilga oladi. O'zbekiston hukumati bugungi kunda ham ko'p asrlardan buyon avloddan avlodga o'tib kelayotgan bu dono naqlga rioya qilib kelmoqda. Prezident Islom Karimov 2005-yilning 28-yanvar kuni Toshkentda bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston bundan keyin ham ushbu tamoyilga rioya qilajagini bayon etdi.

Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri Markaziy

Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqani xavfsizlik hududiga aylantirishdan iborat ekanini ta'kidladi. U integratsion jarayonlar va bozor islohotlarini rivojlantirish, Markaziy Osiyoda mintaqaga mamlakatlarining barqaror taraqqiy etishi va gulab-yashnashiga xizmat qiladigan, katta miqdordagi chet el sarmoyalari uchun yo'l ochadigan umumiy bozorni shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda".

*Xitoy xalqaro radiosи*

\* \* \*

"O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan buyon o'tgan qisqa davr ichida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda katta ijobiy o'zgarishlarga erishdi. Ikki palatali parlamentning ish boshlaganini esa mamlakatning demokratik jarayonlar borasidagi yana bir yutug'i, deb baholayman. Shu nuqtai nazardan, Prezidentning jamiyatni demokratishtashtirish va yangilashda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish masalasini davlat siyosati darajasiga olib chiqqani demokratiya sari yana bir muhim qadamdir. Bu islohotlar O'zbekiston journalistikasining kelgusidagi rivojida turtki bo'ladi".

*Yoaxim SHTERN,  
"Diplomatik depeshe" jurnali muxbiri*

\* \* \*

“So‘nggi vaqtarda xalqaro matbuotda O‘zbekiston iqtisodiyotining yuksalishi haqida bir qator ijobjiy maqolalar chop etilganini alohida ta’kidlab, mamlakatda erishilgan yutuqlar islohotlarning bosqichma-bosqich o‘tkazilishi samarasi, deb baholayman. Prezident ma’ruzasida aytiganidek, jamiyatda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish, mustaqil gazeta va telekanallarning sonini ko‘paytirish borasidagi ishlarning amalga oshirilishi ham jamiyatda iqtisodiy va siyosiy islohotlarni chuqurlashtirishdek muhim ahamiyatga ega masalalardir.

Bu esa O‘zbekistonda demokratik jarayonlarni tezlashtiradi va dunyo hamjamiyati oldida uning obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlaydi. Shuni ham aytmoqchimanki, O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosat sohasida o‘zi belgilab olgan yo‘ldan dadil qadamlar bilan rivojlanib borayotgani jahon davlatlari tomonidan alohida e’tirof etilmoqda”.

Yeva BUR,  
“Ost-Vest-Kontakt”  
jurnali bosh muharriri

\* \* \*

“O‘zbekistonda parlament tizimining isloh qilinishi, ayniqsa, Prezident vakolatlarining ma’lum qismi Senatga o‘tkazilishi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari imkoniyatlarining kengaytirilishi mamlakatning demokratik jamiyat sari

izchil borayotganidan dalolat beradi. Prezident Islom Karimov ma'ruzasida ko'tarilgan masalalar O'zbekistonda demokratik jamiyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekistonning xalqaro maydonda xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurash, yadro qurolini tarqatmaslik borasidagi tashabbuslari ayniqsa e'tiborga sazovor".

*Aleksandr FITS,  
"Русский Берлин" jurnali sharhlovchisi*

\* \* \*

"O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Xususan, mamlakatning qonunchilik hokimiyatiga bo'lib o'tgan saylovlari O'zbekistonda demokratik jarayonlar sari yana bir muhim qadam qo'yilganini ko'rsatdi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida katta mavqega ega bo'lgan bu davlatning Afg'onistonidagi vaziyatni barqarorlashtirishga salmoqli hissa qo'shayotganini ham alohida ta'kidlash kerak".

*"Al-Vafd" gazetasi, Misr*

\* \* \*

"Respublika parlamentiga bo'lib o'tgan saylovlari mamlakatda demokratik islohotlar hayotga amaliy tatbiq etilganini yana bir namoyish etdi. O'zbekistonda ikki palatali parlamentning tashkil

etilgani Afg'oniston davlati uchun namuna bo'lishi lozim. Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisida qilgan ma'rzasida O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot yo'li, uning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida dolzarb bo'lib turgan vazifa va rejalar, mamlakatning tashqi siyosat borasidagi ustuvor yo'naliishlari mukammal ifodalangan".

*"Baxtar" axborot agentligi, Afg'oniston*

\* \* \*

"O'zbekistonda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarish-larning sababi mamlakatda islohotlar hayotga bosqichma-bosqich joriy etilayotgani bilan bog'-liqidir. O'zbekistonning ichki va tashqi siyosat sohasida o'z modeli asosida mustaqil yo'l tutayotgani dunyo davlatlari orasida alohida e'tibor qozonmoqda".

*Perta TIYNEL,  
"Wochenblatt" gazetasi muxbiri*

***"Jahon" axborot agentligi materiallari asosida tayyorlandi.***

## MUNDARIJA

PARLAMENT — JAMIYAT HAYOTINING KO'ZGUSI. <i>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida so'zlangan nutq, 2005-yil 27-yanvar .....</i>	5
BIZNING BOSH MAQSADIMIZ — JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISH VA YANGILASH, MAMLA- KATNI MODERNIZATSİYA VA ISLOH ETİSHDIR. <i>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2005-yil 28-yanvar .....</i>	21
YANGI HAYOTNI ESKICHA QARASH VA YONDA- SHUVLAR BILAN QURIB BO'L MAYDI. 2005-yil 7-fevral .....	63
DEMOKRATIK JAMIYAT SARI YANGI QADAM. ( <i>O'zbekistonda ikki palatali parlamentga bo'lib o'tgan saylovlardan hamda Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasiga xalqaro hamjamiyat vakillarining munosabatlari</i> ) .....	89

*Islom Abdug‘aniyevich Karimov*

**O‘ZBEKISTON  
DEMOKRATIK TARAQQIYOTNING  
YANGI BOSQICHIDA**

Nashriyot muharrirlari *K. Bo‘ronov, P. A’zamova*  
Rassom *X. Qutluqov*  
Texnik muharrirlar *U. Kim, T. Xaritonova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

**Bosishga ruxsat etildi 25.04.05.**

**Qog'oz formati 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. «Tayms» garniturasi.**

**Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 7,56.**

**Nashr t. 5,07. Tiraji 15 000.**

**Buyurtma № K-0039. Bahosi shartnoma asosida.**

**O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining**

**«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi.**

**700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.**

**67.400**

**K 25**

**Islom Karimov.**

O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. T.:  
«O'zbekiston», 2005.— 144 b.

**BBK 67.400+66.4(5U)+  
+65.9(5U)**

Ushbu kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida so'zlagan nutqi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi hamda Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqi o'rinn olgan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda bo'lib o'tgan parlament saylovleri va Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi ma'ruzasi yuzasidan chet el ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan fikr-mulohazalarning ayrimlari e'tiboringizga havoja etilmoqda.

**ISBN 5-640-03-227-8**

**K 0804000000 - 05  
M 351(04)2005**

© «O'ZBEKISTON», 2005-y.

